

Intellektual yoshlar


# INTELLEKTUAL yoshlar

ANTOLOGIYA

2024



Ibroximjon Maxmudjonov  
Nargizabonu Mamadaliyeva



# INTELLEKTUAL YOSHLAR Antologiya

Loyiha asoschilari: Nargizabonu Mamadaliyeva  
Ibroximjon Maxmudjonov

2024

2

## **Imprint**

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: [www.ingimage.com](http://www.ingimage.com)

Publisher:

JustFiction! Edition

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom Str. Armeneasca  
28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe

Printed at: see last page

**ISBN: 978-620-6-74732-1**

Copyright © 2024 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L  
publishing group



***Maxmudjonov Ibroximjon Ismoiljon o'g'li***

2001-yil 7-iyunda Andijon viloyati, Oltinko'1 tumanida tavallud topgan.

2020-yili Andijon davlat universitetiga talabalikka qabul qilingan, hozirda Andijon davlat universiteti ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti, Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

O'qish va ilmiy faoliyati davomida 30 dan ortiq maqola va tezislari xalqaro hamda milliy nufuzli OAK jurnallarda nashr qilingan 3 ta o'quv uslubiy qo'llanma muallifidir.

Yutuqlari 2023-2024 o'quv yilida iqtidorli talabalar uchun ta'sis etilgan "Navoiy" nomli davlat stipendiyasi sohibi.

"Intellectual yoshlar" telegram kanali va klub rahbari, "Intellectual yoshlar" klubida 700 dan ortiq yoshlarimizni qo'llab quvvatlab, ularni ilm yo'lida bilim va malakalarini ortishishda bir qancha amaliy ishlarni davom ettirmoqda.



**Mamadaliyeva Nargizabonu Umurzaqaliyevna**

1987-yil 12-dekabr kuni Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanida tavallud topgan. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi va shu fakultet lideri. Juda ko‘p onlayn va offlayn ko‘rik tanlovlar, konferensiyalar ishtirokchisi.

2003-yili Toshkent Bank hisob-kredit kollejiga eng yuqori ball bilan kirib, bu o‘qishni 2006-yili imtiyozli qizil diplom bilan tamomladi.

2009-yili “Sardorlar maktabi”ning maxsus kursida o‘qib, Oltin diplom bilan bitirdi.

2021-yili 25-mart kuni “Respublika filologlari” kanalidagi “O‘zbekiston xalq shoiri”, “O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan "Men nechun sevaman O‘zbekistonni?" mavzusida o‘tkazilgan tanlovning “Eng yaxshi ijodkor” yo‘nalishida faol ishtiroki uchun 3-darajali diplom va sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil 7-fevral kuni Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabalari orasida Alisher Navoiy tug‘ilgan kuni munosabati bilan o‘tkazilgan “Alisher Navoiy—g‘azal mulkinging sultoni” nomidagi “Eng yaxshi she’r” tanlovida ishtirok etib 3-o‘rin egalladi.

2023-yil u uchun omadli va yutuqlarga boy bo‘ldi, chunki bu yilda, “Innovatsion targ‘ibotchi”, “Ta’lim iftixori” va “MDH eng yaxshi talabasi” ko‘krak nishonlarini oldi.

50 dan ortiq maqola, ilmiy maqola, she‘rlari, hikoyalari mahalliy va xorijiy gazeta, jurnallar va konferensiyalarda nashr etildi. 30 dan ortiq antologiyaga bergan ijodiy ishlari Germaniya, Rossiya, Amerika, Turkiya davlatida va o‘zimizning yurtimizda o‘zbek tili, ingliz tili, turk tillarda nashr etildi. 15 dan ortiq antologiya va kitoblar loyihasi asosida va muharrirligida nashrdan chiqdi. Bir qancha tanlovlar asoschisi.

100 dan ortiq diplom, sertifikat, faxriy yorliq, tashakkurnomalar egasi bo‘ldi.

QDUda o‘tkazilgan “Onam suygan taomlar” onlayn ko‘rik tanlovida faxrli 1-o‘rin olib, 1-o‘rinli diplom, "Eng chaqqon qiz" faxriy yorlig‘i, esdalik sovg‘alarni Universitetning rektori tomonidan tantanali ravishda taqdim etildi.

“Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” shiori ostidagi insholar tanlovida 2-o‘rin oldi.

2023-yil 31-dekabr kuni BMTning SPSC elchisi sifatida maxsus nishon va sertifikat bilan taqdirlandi.

“YUKSALISH SARI—BARCHA UCHUN” loyihasi asoschisi.  
“TALABA-YOSHLAR IJODIYOTI ANTOLOGIYASI” loyihasi  
asosida nashrdan chiqdi.

## SAHARLAB

Haqdan izn so‘rab,  
Bismillohdan boshladik,  
Afsonalar olisdan,  
Meros, ulug‘ yoshladik.

Omad deb yaratiqqa,  
Qadamni tashladik.  
Bir nazmni bitmoqqa,  
Qalamni tarashladik.

Ijod sehri bor ekan,  
Qalam unga yor ekan.  
Ilhom bilan uyg‘onib,  
Yozishga dil kor ekan.

Olam-olam mo‘jiza,  
Orzuga berilamiz  
Qog‘ozga yozilsa,  
Dostonlar bitamiz.

Hayratlar shaydosi,  
Bo‘lmasin hech adosi.  
Baxt yasaylik indallosi,  
Qalamningdir fidosi.

Siyoh ketar illosi,  
Ko‘rinar so‘zlar jilosi.  
Maftunkor durlardan-da  
Boyroqdir imlosi.

Buvinning afsonasini  
Har bir so‘zin, o‘gitini,  
Tumordayin taqib oldim,  
Mag‘zi, ma’nosin uqvoldim.

Zuhra tong saharlab,  
Supurarmish ko‘chani,  
Samolarga termilib,  
Aytar har niyatini.

"Qaniydi yulduzday,  
Tomosha qilsam yerni,  
Yashirsam kunduzday,  
Barcha sirli mehrni.

Ko‘rsatib tunlari yo‘l,  
Manziliga yetkazsam,  
Qilmay yo‘lini mo‘l,  
Qisqartirib o‘tkazsam.

Sheriklarim ort qolib,  
Saharni kutib olsam,  
Kunduzda yo‘qolib,  
Oromimni olvolsam.

Kerakman-da har tunda,  
Mo‘ljallini olvolsam,  
Yulduzlardayin unda,  
Osmonlarda bo‘lvolsam".

Yer yuzin tozalagan,  
Yuzi yorug‘ deydilar,  
Saharlab orzulagan,  
Ijobatlig‘ deydilar.

Orzulari ro‘yobida,  
Uchdi parvozi o‘zga,  
Zuhra aylandi shunda,  
Osmonda bir yulduzga.

Tundan sahargacha  
Turadi xoslanib,  
Borsin manzargacha  
Deya doim rostlanib.

Nasihat qizlarchun,  
Erta sahar turing,  
Ollohdan so‘rab,  
Yer yuzin supuring.

Duo oling yerdan,  
Qolmang savoblardan.  
Yaxshilik birdan  
Kelar javoblardan.

Niyatni qiling yaxshi,  
Ro‘yobini ko‘rasiz.  
Bulardir dil naqshi,  
Quvonchlarga to‘lasiz.

## **Buvim menga aytgan AFSONA VA RIVOYATLAR**

### **YULDUZGA AYLANGAN ZUHRA**

Zuhra ismli qiz har kun tong saharlab turib, ko‘chalarni supurib, yulduzlarga aylanib qolishni niyat qiladi. U shu darajada yulduzlarga havas qiladi, ularday samoda turib yer yuzini kuzatishni istaydi.

Bir kuni tong saharda turib, ko‘cha supurayotganda osmonga ko‘tarilib, yulduzga aylanadi. Zuhra Yer yuzini tomosha qilish uchun hamma yulduzdan oldin osmonda paydo bo‘lib, saharga yaqin boshqa yulduzlardan keyin yo‘q bo‘ladi.

Bu afsonani misol qilib, buvim bizga saharda turib, uyimizning atrofini supurayotganimizda niyat qilsak, ijobat bo‘lishini aytishardilar.



## AJINA

Mirzaxo‘ja qishlog‘ida har shomda paydo bo‘ladigan ajina bor ekan. U har doim masjidida shom namozini o‘qib chiqqan odamlarni chimdib, g‘ashiga tegar ekan.

Bu qishloqda dami o‘tkazib kir, ilmi, duo o‘qiganda suvlar ham teskari oqadigan Madamin buva yashar ekanlar.

Bir kuni Madamin buva shom payti namoz o‘qib, mahallamizdagi masjidan chiqqanlarida bu ajinani tovonni yo‘q, bir qo‘lida esa kitobi bor holda odamlarni chimdib, u yog‘idan o‘tib, bu yog‘idan o‘tib, insonlarga tegajaklik qilib yurganini ko‘rib qolishibdi. Shundan so‘ng uning yoniga borib, uni itarishganda, orqasi tomoni bilan yiqilib tushib, keyin qo‘lidagi kitobni olib qo‘yibdilar. Har kecha ajina borib bu buvadan kitobni qaytarib berishini so‘rab yolvoradigan bo‘libdi.

Va nihoyat:

—Jon buva, iltimos kitobimni bering, nima desangiz, aytganingizni qilaman.

Madamin buva:

—Bu kitobni bir shart bilan beraman, 7 avlodimizgacha ko‘zga ko‘rinmaysan, zulm-zahmat yetkazmaysan va bizni tinch qo‘yasan.

— Xo‘p, va‘da beraman kitobimni qaytarsangiz bo‘ldi, 7 avlodingizgacha hech kimga ko‘rinmayman, zulm-zahmat yetkazmayman, —deb va‘da beribdi u.

Buva kitobni qaytarib berishibdi, shu zahotiyuq u ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.

Bu Salimaxon hoji onamizning bolalik chog‘larimda menga aytib bergan hikoyalardan biri, men 4-avlodlaridan biriman.

12.08.2022-y.

## HOJATXONANI OZODA TUTISH HAQIDA

Xalqda: “Hojatxonani 40 kun supurib yig‘ishtirsang, 41-kuni Xizr senga ko‘rinadi, uning bosh barmog‘ida suyak bo‘lmaydi, shu barmog‘ini ushlab nimaki niyat qilsang, bari ushaladi”,—degan aqida bor.

Buni eshitgan Saida ismli qiz har kuni hojatxonani supurib, tozalab qo‘yishni odat qilibdi. Hojatxonani tozalashining 41-kuni bir oppoq libosli, oq soqolli bir nurli chol paydo bo‘libdi va qiz darrov bu zotning bosh barmog‘ini ushlabdi, barmog‘ining suyagi yo‘q ekan.

Xizr:

—Tila tilagingni,—deya so‘rabdi.

Shunda qiz yura olmaydigan otasiga sog‘liq tilab, oyoqlari yurib ketishini so‘raganida Xizr:

—Tilaging amalga oshdi, —deb ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.

Qiz otasining oldiga yugurib borib qarasa, otasi turib uzumlarning ortiqcha bargini tokqaychida kesa yotgan ekan. Qiz tilagi amalga oshganini ko‘rib xursand bo‘libdi.

Buvim bu afsonani bizni hojatxonani ozoda saqlashimiz uchun ta‘sirli tarzda aytib berishardilar.

26. 05.2024

## KIM OYATAL KURSINI O‘QISA BARCHA YOMONLIKDAN OMONDA BO‘LADI

Ubay ibn Ka‘b roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Otam shunday dedi: «Xurmo quritadigan joyimiz bo‘lar edi. Men u yerdan xabar olib turardim. Har kecha xurmo kamaya boshladi. Shuning uchun bir kecha uni qo‘riqlab yotdim. Qarasam, navqiron yigit ko‘rinishidagi bir jonzot ekan. Salom bersam, alik oldi.

– Jinmisan, insonmisan? – dedim.

– Jinman, – dedi.

– Qo‘lingni uzat, – dedim. Qarasam itning qo‘li, itning yungi. «Jin mana shunday bo‘ladi», deb o‘yladim.

– Jinlarning ichida mendan chopag‘onim yo‘q, – dedi.

– Nima uchun bu ishga qo‘l urding, – dedim.

– Menga seni sadaqa qilishni yaxshi ko‘radi, deyishdi. Shuning uchun yeguligingdan olgim keldi, – dedi.

– Bizni sizlardan nima himoya qiladi? – dedim.

– Mana bu Oyatal Kursiy, – dedi.

Men uni qo‘yib yubordim. Keyin borib, bor gapni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga aytib berdim. Shunda u zot: «U to‘g‘ri aytibdi», dedilar.

Buni Ibn Hibbon rivoyat qilgan.

Bu rivoyatni o‘qib, buvimning aytib berishgan Oyatal kursi haqida hikoyatlari esimga tushib ketdi.

Bir kuni ikki kishi janjallashib qolibdi, birinchi kishi: "Falon kuni seni uxlayotganingda o‘ldiraman",—deb ketibdi.

Ikkinchi odam qo‘rqqanidan nima qilishni o‘ylab ko‘chada parishon turganida, yonidan bir darvesh o‘tib ketayotib, unga razm solib: "Sizga nima bo‘ldi, nega parishonsiz", — deb so‘raydi.

Shunda u kishi unga bir odam tunda kelib, uni o‘ldirishini aytib beradi. Darvesh: "Kimki yotishdan avval 11 marta Oyatal kursini o‘qib yotsa, unga hech kim yaqin kela olmaydi, hatto dushmanga ko‘rinmaydigan bo‘lib qoladi", —deb yo‘lini davom ettiribdi.

Qotildan omon qolish chorasi borligini bilgan kishi juda xursand holda xotirjam bo‘lib uyiga kirib ketibdi. Tunlari esa bamaylixotir uxlay boshlabdi.

Qotil kelar kechasi bo‘lganda 7 marta Oyatal-kursini o‘qib uxlab qolibdi. Dushmani yotoqxonaga kirib qarasa ko‘rpa ustida boshsiz odam yotgan emish, qo‘rqqanidan orqasiga qaramay qochib qolibdi.

Shunday qilib, bu inson o‘limdan qutulib qolgan ekan.

2022.

## **Hasanova Muslimabonu Xurshid qizi**

*Mental arifmetikadan Oliy o‘rin olib, Qozog‘istonga yo‘llanmani qo‘lga kiritgan. 44-maktabda o‘tkazilgan rasm chizish tanlovida 1-o‘rinni olgan. Hozirgi kunda bir qancha ijodiy ishlari antologiyalarda chop etib kelinmoqda.*

*20 dan ortiq antologiya va kitoblarning dizayneri.*

### **O‘RMONDA ADASHIB QOLGAN QIZ**

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Bir qizcha bor ekan. Bir kuni onasi qizchaga:

— Qizim, sen o‘rmonga borib, qo‘ziqorin olib kel,-debdi.

— Xo‘p, oyijon,—debdi qizcha va katta savatchani olib, o‘rmonga boribdi. O‘rmonda qo‘ziqorinlar ko‘p ekan. Terib-terib savatchasi to‘lib qolibdi. Keyin uyga boray desa, adashib qolibdi. Qo‘rqqanidan qaltirab ketibdi. Qorong‘i bo‘libdi, o‘rmon qo‘rqinchli edi, lekin u qo‘rqmabdi. "Men yo‘lni davom etishim kerak", — deya yo‘lini davom etibdi.

Yo‘l yuribdi-yuribdi, yo‘lda quyunchalarni uchratib qolibdi.

Quyuncha:

— Menga yordam ber, — debdi. U qiz quyunchaga yordam beribdi. Quyunchalar qizchaga rahmat aytibdi. Qizcha qo‘rqmasdan yo‘lini davom ettirdi. Sherni uchratib qolibdi. Qizcha sherni o‘kirishidan qo‘rqib ketibdi. Sher:

— Qizcha, menga yordam ber, — debdi. Qizcha ko‘rganda sherni oyog‘iga tikan kirib qolgan ekan. U sherni oyog‘idan tikanni olib tashlabdi va yo‘lini davom ettirib ketayotsa, qizcha qorong‘ilikda chuqur quduqqa qoqilib, ichiga tushib ketganida sher va quyon unga yordam beradi. Qizcha yig‘lashini ko‘rib, sher: — Senga nima bo‘ldi, — deb so‘raydi.

Qizcha: — Qoqilganimda qo‘limdagi savatdagi qo‘ziqorinlar to‘kilib ketdi, uyimga boradigan yo‘lni ham topolmayapman, — deydi.

Quyon o‘z oilasi bilan qo‘ziqorin terib keladi, sher esa qizchani uyiga olib borib qo‘yadi. Qizcha ularga rahmat aytadi va ular bilan do‘st tutinadi, har doim birga qo‘ziqorin terishadi.

Xulosa.

Hech narsadan qo‘rqmaslik kerak, o‘zida ishonch bo‘lishi kerak.



***Abdumannonova Gullola Alimardon qizi***

2005-yil 11-aprel Farg'onada tug'ilganman. Hozirda Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Menejment fakulteti 101-A guruh talabasiman.

**QOR OSTIDA**

Mana... o'sha-o'sha biz kutgan qorlar,  
Yog'ayapti dur kabi samodan hanuz.  
Eslatar har parcha sening vaslingni,  
Uchrashmoq va'dasin berganlaringni.

Nazdimda bu qorlar hayf ketgandayin,  
Sensiz... Mensiz... Muhabbatingsiz  
Jovdirab yog'adi, topolmay bizni,  
Seni... Meni...va Muhabbatimni.

Xayolimda bir o'y aylanar doim,  
Joning sog'mi yuribsanmi Oxiratligim?  
Boshing uzra qo'nayapti qalbim quvonchi,  
Bir bor eslatdimi qalbi muzligim?

**ENDI QAYTIB TUG'ILMAYDI SENDAY ONA**

Yashading ho'p, zahmatlarni yutib, ona,  
Yo'limdagi tikanlarni yulib, ona.  
Yurak bag'ring ezildi-ku buncha seni,  
Endi qaytib tug'ilmaydi senday ona!

Igna-iping qo'llaringdan tushirmading hech,  
Nokas igna teshar barmog'ing erta-yu kech.  
Bir bor o'zing uchun yasha bu zamonda,  
Endi qaytib tug'ilmaydi senday ona!

O'ylamading, sochingdagi oqlaringni  
O'ylamading, egningdagi libosingni  
O'ylamading, yeb-ichish-u dam olishni  
Endi qaytib tug'ilmaydi senday ona!



### **Xidirboyev Odilbek Alisherovich**

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumani Qipchoq OFY Uyshin MFY da 2005-yil 20-fevralda tavallud topgan. Yoshligidan she‘riyat va ijodga qiziqib 4-sinfidan ijod bilan shug‘ullana boshlagan. Birinchi she‘ri Amudaryo tumani "Taraqqiyot ko‘zgusi" gazetasida bosilib chiqqan. Hozirgi kunda Qoraqalpoq davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakultetining 3-bosqich talabasi. Ko‘pgina ijod namunalari har xil nashriyotlarda bosilib chiqqan.*

### **SO‘NGGI SO‘Z (Muhammad Yusufga)**

O‘lsam ko‘pchilikka bo‘lmaydi og‘ir,  
Ko‘pchilik sezmaydi bor-u yo‘qligim,  
Ko‘pchilik unutar ikki oy o‘tmay,  
Ko‘pchilik unutar janozam bitmay.

Halak jon, ichimda so‘nggi so‘z aytar,  
Axir rahming kelsin onajonimga,  
Ul faqir bir chetda yum-yum yig‘laydi  
To‘xtatish, yupatish eshitmay yig‘laydi,

Onamni chaqiring ovozin eshitay,  
Ammo bejon holda meni ko‘rmasin,  
Shoir bo‘lsin deya tug‘di u atay,  
Endi men yo‘qligim onam bilmasin.

Onam tinglamaydi hech kim, so‘zingiz,  
Muhammadim qani deya so‘raydi,  
Bandalik onajon u yo‘q desangiz,  
Bu dunyo u uchun ortiq bo‘lmaydi.

Onamning yoniga boring Abdulla,  
Munojotdan boshlang so‘zning boshini,  
Muhammadjon uchdi samolarga deng,  
Samolardan sizga qoqar qoshini.

Xaloyiq aytinglar cho'ldamanmi men,  
Ichimda jon halak yetishmas havo,  
Yoki bu quyoshning quchog'imikan,  
Qaydandir eshitar o'limdan navo.

Bo'ylari yetishdi 3 ta qizimning,  
Sovchilar keladi ne ne ellardan,  
Nazira zo'r qilib o'tkaz to'ylaring ,  
Ko'rib quvonayin turib ko'klardan.

Hayot daftarinimning so'nggi varag'i,  
Qalamni so'nggi bor qo'limga oldim,  
Tog'lar orasida bag'ri qip-qizil,  
Lolaqizg'aldoqni bir esga oldim.

Lolani ekinglar qabrim ustiga,  
Uzoqdan bilinsin, „Qabr kimniki“,  
Deya so'ramasin odamlar zimdan,  
Ayting Lola faqat Muhammadniki.

Yozuvchi shoirlar ko'pdir elimda,  
Ne -ne Muhammadlar chiqadi hali,  
Ammo g'amxo'r bo'ling, shamollar qiynab,  
Barglari uchmasin lolaning holi.

So'nggi so'z aytmoqlik juda mushkuldir,  
Andijon chorlaydi ostonalaring,  
Ellikqal'a so'nggi joy, manzilim shuldir,  
Azroil eshitmaydi pinhonalaring.

Uyoqqa buyoqqa uriladi jon,  
Tanim qiynalmoqda ushlab turishga,  
So'zim qisqa qilay vidolashuv on,  
Faqat va'da bering aza ochmasga.

LOLA , LOLAJONIM, LOLAQIZG'ALDOQ...

\* \* \*

Qara, ummon qancha kattasan,  
To‘lqinlaring go‘zal o‘zingdan,  
Quchog‘ingga olib sen yerni,  
Qizg‘onasan uni hammadan.

Qara, ummon qancha kattasan,  
Ilg‘ay olmas barchasin ko‘zim,  
Ammo hurga sevgim oldi-da  
Oddiygina bitta tomchisan.

Koinot bir parchadek go‘yo,  
Hatto quyosh mittigina cho‘g‘,  
Uchib o‘tar somon yo‘lidan,  
Sevgim cheksiz olovdayin o‘q,

Qara ummon qancha kattasan,  
Boylklaring to‘la bag‘ringda,  
Marjoningdan bir uzuk yasab,  
Bergin, taqay hurning qo‘liga.

Ismin yozdim yuragim ochib,  
O‘chirmasman umrbodga deb,  
Go‘zal yozgin yuraging ochib,  
O‘chirmayman umrbodda deb...

Hatto ummon sevishim bilar,  
Koinotdir baxting shul deydi,  
Sevar go‘zal, yuraging sevar,  
Qalbing eshit, "Baxting shul",-deydi

Samolarning olqishlovida  
Biz chiqaylik sevgi sahniga,  
Ul sahnda mangu yashaylik,  
Bermay butun inson zotiga...

\* \* \*



O'sha quyosh chiqqan tarafga,  
Senmikan deb qarayveraman.  
O'ylayman-u, tilayman ko'kka.  
Tinmay seni so'rayveraman.

Maysalarni bir-bir oralab,  
Sening bosgan izing izlayman,  
Bolday ovoz va so'zlaringni,  
Shamollardan olib tinglayman.

Qo'ling tutgan qizil atirgul,  
Dunyodagi eng baxtli asli,  
Gulin izlar shaydo bir bulbul,  
Tashna ko'ngil, mendirman asli.

Yuzing ko'rgan, toshqin daryolar  
Irmoqlanib sen tomon oqar,  
Madhing eshitgan necha podsholar,  
Yo'ling qayda, manziling so'rar.

Qamish hayron, sochilib borar.  
Donalari sening ortingdan,  
Qo'shildirdi hatto arilar,  
Osmon qizarar sening taftingdan.

O'sha quyosh chiqqan tarafga,  
Senmikan deb qarayveraman,  
Sen haqingda kimdir so'z ochsa,  
Sevishimni aytaveraman...



**Aminboyeva Munisa Ravshanovna**

*Men Xorazm viloyati Yangiariq tumani Ostona qishlog'ida tug'ilganman. Oila 5 kishimiz. Respublika Do'rmon ijodkorlar klubi a'zosiman. Ko'pgina she'rlarim matbuotda e'lon qilingan. Hozirda Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasiman.*

### **SHE'RLARIM YONIMDA BO'LSA BO'LGANI**

Yaxshiyam qo'limda bordir qalamim,  
U bayon etadi dardim, alamim.  
Mening takrorlanmas ajib olamin,  
She'rlarim yonimda bo'lsa bo'lgani...

Qo'limga qalam tutqazdi robbim,  
She'rimda namoyon yuragim, qalbm.  
Eng og'ir damda ham u bilan qoldim,  
She'rlarim yonimda bo'lsa bo'lgani...

Dardimni solaman oppoq qog'ozga,  
Jim quloq solaman qalbdan ovozga.  
Meni tushunmaydi she'rimday o'zga,  
She'rlarim yonimda bo'lsa bo'lgani...

Qalamni olaman, dardga to'lsam ham,  
Qalamni olaman, baxtga to'lsam ham.  
She'rlarim yashaydi, o'zim o'lsam ham,  
She'rlarim abadiy qolsa bo'lgani...

Men dunyoda eng baxtli odam,  
Allohim izmida ushladim qalam.  
Hayotim quyoshi, beqiyos olam,  
She'rlarim yonimda bo'lsa bo'lgani...

\*\*\*

Meni uyg'otmanglar bu tush bo'lsa gar,  
Juda baxtiyorman ishoning shu dam.  
Hech g'amdan so'zlamang quloqlarim kar,  
Ko'zim qarog'ida baxtiyor olam..

Meni uyg'otmanglar tush bo'lsa aslo,  
Bir umr yashayin shu tush ichida.  
Ta'riflay olmayman bu baxtni zero,  
Zero,tursa hamki tilning uchida...

Meni uyg'otmanglar bu shirin tushdan...

\*\*\*

### **Uchlik**

Meni aytma kimdir so'rasa,  
Agar kimdir meni yo'qlasa,  
U o'zini tark etdi degin ...

Atrofimda to'la odamlar,  
Lek bilmayman odammi ular,  
Yoki odam qiyofasimi?



***Tirkasheva Sevinch***

Samarqand viloyati Ishtixon tumani Barlos mahallasida 2005 yil 1-oktabrda tugʻilganman.

22-umumiy oʻrta taʼlim maktabida tahsil olganman va hozirgi kunda abituriyentman.

Maktab tomonidan turli sheʼriy koʻrik tanlovlarda faol ishtirok etib turli esdalik sovgʻalar, faxriy yorliqlar bilan taqdirlanganman.

### **OʻN OLTI BAHORI KUL BOʻLGAN ERKAM**

(SINGLIMNI YORQIN XOTIRASIGA BAGʻISHLANADI)

Sen koʻzni kuydirgan oydan bir parcham,  
Umri xazon boʻlgan mitti yulduzcham.  
Toʻyib kuyolmagan ashulam, kuycham.  
Umring qisqa boʻldi, oh erka qushcham,  
Oʻn olti bahori kul boʻlgan erkam.

Endi sochlaringni shamol silamas,  
Sen solgan jarohat bitmas, tuzalmas.  
Otam koʻksin mushtlar, onam chidolmas,  
Nuridiydam senga oʻzga achinmas,  
Oʻn olti bahori kul boʻlgan erkam.

Sen yurgan izingdan ochildi chechak,  
Dunyo kafan boʻldi bizga belanchak,  
Tunlar yuragimdan yosh tomar chak -chak.  
Senga oy suqlandi armon kelinchak,  
Oʻn olti bahori kul boʻlgan erkam.

Qaylarga shoshilding, erka jayronim,  
Ochilmay qurigan lola-rayhonim.  
Sogʻindim qaylardan izlay darmonim,  
Xazonga aylangan buyuk armonim,  
Oʻn olti bahori kul boʻlgan.

## OTA-ONAMGA

Hayotim mazmuni bor ikki inson,  
Ular bor yomg'ir ham chertolmas aslo.  
Mendan ko'p taqdirim o'ylashar har on,  
Dunyo holimoli kerakmas aslo.

Oq sutingiz-u bedor tunlar hurmatin,  
Umrimni bersam-da to'la olmayman.  
Halol luqma bergan otam zahmatin,  
Butun mol dunyola uza olmayman.

Eng qimmat gavharim topilmas boylik  
Qora sochlaringiz qor qilgan nodon  
Topmadim dunyoda kechirim qalblik  
Ko'nglingiz ranjitgan nodonman nodon

Baxtinga go'shanga qurgan ikki jon  
Yo'limda tikandan o'tganlar yurib  
To'rt farzand g'amini o'ylaydi har on  
Bizga narvon bo'ldi yamoq to'n kiyib

Boshimda humo qush — davlatim otam  
Muhrimni qo'yaman oyga, ko'rasiz.  
Baxtimni qo'rg'oni — jannatim onam  
Shoira bo'laman bir kun ko'rasiz.

**G'afforov Behruz Rashid o'g'li**  
Qashqadaryo viloyati Koson tumani Qorabayir qishlog'ida tug'ilgan. IT sohasi bo'yicha sertifikati bor, ixtirolar qilishga qiziqadi. Bir qancha tanlov va tadbirlarga qatnashib kelmoqda. Mental arifmetikadan faxrli 1-o'rinlar olgan.

### VATAN TUYG'USI

Yuragimni to'rida,  
Jannatmakon yer bordir,  
Sotmas edim hech kimga,  
Uning nomi Vatandir.

Temuriylar, Boburlar,  
ibn Sino, donolar,  
Urug'idir Turkiston,  
Nomidir O'zbekiston.

Bayrog'i bor to'rt rangda,  
Ko'k, qizil, oq, yashilda,  
Havas kelar ko'rganda,  
Ko'klarga ko'targanda.

Ko'rganda bayrog'imni,  
Qizg'anaman hammadan,  
Yerda yotsa indamay,  
Olib qo'yaman tezda

Gerbi juda chiroylidir  
O'rtasida Humo qush,  
Ortida bor Sokin tun  
Serquyoshli bo'lmas tush.

Madhiyasi puxtadir,  
Abdulla Oripovlar,  
Gap bo'lishi mumkinmas,  
Yurakdan chiqqan so'zlar,

Chet elda yurganimda,  
O'zbeklarni ko'rsam gar,  
Iloji bor bo'lguncha,  
Yordam bergim kelar.

Yurtimga qaytganimda,  
Moyiy osmonimiz bor,  
Yashil dala, bog', polizlar,  
Tinchlik hisini berar.



**Urinova Feruza Fozilovna**

Pedagogika fakulteti talabasi;

Kurs sardori.

☆ Samarqand viloyati 6-umumiy oʻrta maktabni gimnaziya sinfini aʻlo baholar bilan bitirgan;

☆ Samarqand Qishloq xoʻjaligi Instituti qoshidagi akademik litsey bitiruvchisi;

☆ 15 yillik tajribaga ega tikuvchi-master;

☆ Alfraganus Universiteti tomonidan tashkil etilgan Debat Klubi bosh koordinatori;

☆ "Al-Fargʻoniy vorislari" zakovat klubi aʻzosi;

☆ SMM sohasi onlayn kursi bitiruvchisi;

☆ "Afsonaviy yoshlar", "Bir safdamiz", "Intellectual Yoshlar Forumi", "Kelajak Yoshlar Forumi" forumlari faol ishtirokchisi;

☆ 30 dan ortiq sertifikat va diplomlar egasi;

☆ Xalqaro ilmiy maqolalar tanlovi sovrindori;

☆ "Taʻlimdagi muvaffaqiyatlari uchun" koʻkrak nishoni bilan taqdirlangan;

☆ Bu yil Alfraganus Universitetining "Eng faol va eng namunali talabalar uchun" bir yillik grantiga ega boʻldi.

### **AMIR TEMURNING DUNYO SAHNIDA TUTGAN OʻRNI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sohibqiron Amir Temurning hayoti va sarkardalik faoliyati, qolaversa jahon tamaddunida tutgan oʻrni haqida soʻz yuritilgan. "Temur tuzuklari" haqida ayrim mulohazalar bildirilgan.

**Kalit soʻzlar:** Amir Temur, Kesh (Shahrisabz), Oqsaroy, "Temur tuzuklari", sarkarda, temuriylar saltanati, madaniy aloqalar, fan va sanʼat.

Amir Temur Koʻragon buyuk tarixiy shaxslardan biridir. Amir Temurning hayoti va faoliyatiga diqqat bilan nazar solish, uning tarixdagi oʻrni yaqin kunlarga bizga maʼlum.

Temuriylar davlatining asoschisi Amir Temur dunyo tarixida muhim

ahamiyatga ega sarkardalardan biridir. U 1336- yil 9- aprel kuni Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan.

Amir Temur O'rta, Janubiy va G'arbiy Osiyo, shuningdek, Kavkaz, Povoljya va Rus tarixida muhim o'rin tutgan O'rta Osiyolik turkiy hukmdor, sarkarda va zobit. Sarkarda, poytaxti Samarqand bo'lgan Temuriylar saltanati (1370 yil) asoschisi. Rivoyatlarga ko'ra, u qo'lida qip-qizil qon bo'lagi bilan, sochlari esa mo'ysafid kabi oppoq holatda tug'ilgan, bunday holat Chingizxon haqida ham gapirilgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag'ay turk avlodining barloslaridan bo'lib, Movarounnahrda o'ziga yarasha obro'-e'tiborga ega, nufuzli ziyolilardan bo'lgan. Uning ota-bobosi afsonaviy turkiy Alan quva shajarasidan kelib chiqqan bo'lib, Chig'atoy ulusining saroydagi obro'-e'tiborli kishilari qatoridan joy olgan. Kesh va Nefes atrofidagi yerlar ularga qarashli mulk hisoblangan.

Temurning otasi Tarag'ay doimiy ravishda xon ulusi bo'lmish Il daryosi qirg'og'iga chaqiriluvchi chig'atoy beklari qurultoylarida ishtirok etgan. 1355 yil u Turmush og'a barlosi amir Jakuning qiziga uylanadi. Movarounnahrning bosh amiri Qozag'on Amir Temurning qobiliyatlariga ishonch hosil qilib, shu yiliyoq unga nevarasi Uljay Turkan og'ani nikohlab beradi. Ushbu nikoh sharofati bilan Qazog'onning nevarasi amir Husayn va Amir Temurlar ittifoqi vujudga keladi. Bu ittifoq mo'g'ullarga qarshi kurashda juda qo'l keladi. 1356 yil Amir Temurning 2 o'g'li dunyoga keladi — Jahongir va Umar Shayx.

Amir Temur hayoti haqida bizga ma'lumot beruvchi jahonda va mamlakatimizda juda ko'plab manbalar mavjud bo'lib quyida ulardan ayrimlarini keltiramiz:

\*G'iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islomning Amir Temurning Hindistonga yurishlari haqidagi xotiralari;

\*Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari;

\*Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" asari;

\*Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari;

\*Kastiliya va Leon elchisi Rui Gonzales de Klavixoning "Samarqandga sayohat kundaligi" xotiralari;

\*Sultoniyalik arxiyepiskop, Fransiyaga Temur elchisi sifatida yuborilgan Iaconning "Temur hayoti va saroyi" xotiralari;

\*Tunislik tarixchi, geograf Ibn Xaldun xotiralari.

Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi harakatlari XIV asrning 60-yillaridan boshlandi. Bu paytda mamlakatda parokandalik boshlangan, u o'nga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketgan edi. Chig'atoy ulusining sharqiy qismi - Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu yerda o'z hokimiyatlarini o'rnatishga harakat qildilar. Ammo Amir Temurning sarkardalik



qobiliyati va qiyin vaziyatlarda to'g'ri yo'lni topa bilishi o'z samarasini berdi. Hokimiyatparast chingiziy beklarga qarshi janglar yakunida 1370-yilning 11- aprelida u Movarounnahr amiri bo'ldi. Garchi an'anaga ko'ra chingiziyatlardan Suyurg'atmishxon mamlakat hukmdori deb e'lon qilingan bo'lsa-da, amalda butun hokimiyat Amir Temur qo'lida edi. U katta g'ayrat bilan mamlakat iqtisodiy va harbiy qudratini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirdi. Bu esa Temuriylar saltanatini dunyodagi eng kuchli davlatlardan biriga aylantirdi.

Amir Temurning hayotlik vaqtida davlat boshqaruvi haqida so'zlovchi "Temur tuzuklari" nomli maxsus asar yozilgan. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, O'rta asrning bebaho tarixiy manbasi hisoblanadi. Unda Temurning hayotiy voqealari bilan bog'liq tarjimayi holi, atoqli davlat arbobi va sarkardaning harbiy san'atga bo'lgan nuqtai nazari, davlat tuzilishi va boshqaruvi kabilar bayon qilingan. Amir Temur tomonidan yaratilgan markazlashgan, kuchli boshqaruvga ega davlat ushbu bebaho qoidalar majmuasi hisoblanmish kitob asosida yaratilgan. Yirik davlatni yaratib, Amir Temur mamlakatning iqtisodiy va madaniy rivoji uchun sharoitlarni tayyorlagan. O'tgan davrlarning qadimiy an'analari yangi tarixiy ko'rinishda qayta tiklanadi. Yaqin va O'rta sharq bo'ylab Movarounnahr savdo-sotiq, iqtisod va madaniyat markaziga aylanishi zamirida, Samarqand, Kesh, Buxoro, Termiz, Toshkent, Marv va boshqa qadimiy shaharlar obodonlasha boshlagan.

Amir Temur masjid, madrasa, maqbara, karvon-saroy va hammomlarning barpo etilishiga alohida e'tibor bilan yondashgan. Har qanday g'alaba me'morchilikda abadiylashishi odatiy holatga aylanib qolgan. Quruvchilik faoliyatida Amir Temur ma'lum bir siyosiy maqsadlarga amal qilgan - u qurdirgan inshootlar saltanatining kuch-qudratini ko'rsatib bera olishi kerak bo'lgan.

Boshqaruv yillari davomida Amir Temur feodal tarqoqlikka barham beradi, Fransiya, Angliya, Kastiliya kabi yirik Ovrupa qirolliklari bilan savdo-diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yadi. Afsuski, Amir Temurning vafotidan so'ng G'arbiy Ovrupa bilan savdo-diplomatik aloqalar nihoyasiga yetadi.

Amir Temur tarix sahifalarida Aleksandr Makedonskiy, Dariy Perviy, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorda turadi.

Amir Temur shaxsiyati haqida gapirganda, uning qanchalik mard, jasur va chinakam ma'noda oliyjanob insonligining yana bir bor guvohi bo'lamiz. Temur yengilgan dushmanga ham shavqat qiladi. Chunonchi, qaynisi, raqibi va keyinchalik ashaddiy dushmani bo'lgan hamda Temurning hayotiga bir necha marta suiqasd qilgan Amir Husaynga nisbatan Temur hech qanday yomonlikni ravo ko'rmaydi. Temurning ayollarga munosabati ham uning oliyjanobligidan dalolat beradi. U o'z xotinlariga izzat va ikrom bilan qaragan. Ko'plab janglarda asira bo'lib

qo'lg'a tushgan ayollarga munosabatda ularning sha'niga, himoyasiga e'tibor qaratgan. U zamonidagi xon va shohlarga o'xshab saroyni kanizaklar bilan to'ldirishga intilmagan, shariat ahkomlaridan tashqari ish qilmagan. Masalan, u Amir Husayn o'ldirilganidan keyin uning beva qolgan 4 xotinini shar'iy yo'l bilan nikohlab oladi.

Bu kabi insoniy fazilatlarni Amir Temurda ko'plab uchratish mumkin. Adolat, insonparvarlik, aql va zakovat hamisha sarkardaga uchragan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Amir Temur Ko'ragon, "Zafar yo'li" (Tarjimayi hol). Toshkent: Nur, 1992.
2. Temur tuzuklari. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991
3. Sohibqiron, Abdulla Oripov, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001-y
4. <https://arboblar.uz>



**O'ralova Gulida Ergash qizi**

TIQXMMI" MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi.

## **SUV RESURISLARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada suv resurlarining xo'jaligi hamda uni iqtisodiyotga ta'siri haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Undan tashqari maqolada qishloq va suv xo'jaligini rivojlantirish, ularni bosqichma–bosqich bozor munosabatlariga o'tkazish, ishlab chiqarish faoliyatining biznes rejasini tuzish, loyiha smeta xujjatlarini tuzish, meliorativ tadbirlar o'tkazish, ularning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatuvchi iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va boshqa dolzarb muammolarni o'rgatadi.

**Kalit so'zlar.** Tabiat, yer osti, tarmoq, qishloq xo'jaligi, texnika, loyihalashtirish, biznes.

Yer tabiat mahsuli bo'lib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muhim ahamiyatga ega. Chunki u mazkur tarmoqning eng asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Yerga urug'. ko'chat ekib, ishlov berish natijasida turli xildagi mahsulotlar yetishtiriladi. Demak, tarmoqda yetishtiriladigan barcha turdagi mahsulotlar yerdan, suvdan foydalangan holda olinadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq ho'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.[1]

Qishloq va suv xo'jaligini bozor munosabatlariga o'tkazish va ularning iqtisodiyotini talab va taklif qonunlarining amal qilishi asosida rivojlantirish, ko'p jihatdan kadrlar tayyorlashning muvaffaqiyatli hal etilishiga bog'liq. Bu muammolarni hal etishda suv xo'jaligi iqtisodiyoti fanini talabalar tamonidan chuqur o'rganishi muhim

ahamiyat kasb etadi[2].

Suv xo'jaligida loyhalashtirish ishlari muhim masala hisoblanadi. Shundan kelib chiqib tarmoqda quriladigan ob'ektlarni loyhalashtirishning iqtisodiy asoslari bayon qilingan. Bundan tashqari suv xo'jalik tizimlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari, tarmoq uchun kadrlar tayyorlash muammolari, mehnat resurslari, ulardan foydalanishning hozirgi kundagi holati, mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirishni yaxshi yo'lga qo'yish, tarmoqning asosiy va aylanma fondlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini, uning tannaxsini pasaytirish tarmoqda olinadigan foydani va xo'jaliklarning rentabellik darajasini oshirish, xo'jaliklarni bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tkazish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish masalalari, kapital qo'yilmalarning samaradorligini aniqlash uslublari va uni oshirish yo'llari o'z aksini topgan. Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish va suv xo'jaligi ob'ektlari xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari qabul qilinadi. [3]

Prezidentning "Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish va suv xo'jaligi ob'ektlari xavfsizligini ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni loyihasi muhokama uchun joylashtirildi. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilanadi:

Suv resurslarini boshqarish va hisobini yuritish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish, shuningdek, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, suvlarning zararli ta'sirini oldini olish va bartaraf etish sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

Respublika aholisi, iqtisodiyot tarmoqlari va atrof-muhitning suvga bo'lgan muttasil oshib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, suv resurslarini samarali boshqarish va foydalanishni ta'minlash;

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va barqarorligini ta'minlash choralari ko'rish, suv xo'jaligida bozor iqtisodiyoti tamoyillari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmi va autsorsingni joriy qilish;

Loyiha-qidiruv, ekspertiza va qurilish ishlarini sifatli tashkil qilish, suv xo'jaligi ob'ektlarini modernizatsiyalash va rivojlantirish, ishonchli va xavfsiz ishlashini ta'minlash, toifalangan suv xo'jaligi ob'ektlarini loyihalash va ekspertiza qilish ishlariga xorijiy mutaxassislarini jalb qilish;

Har bir loyihaning iqtisodiy samaradorligi va ob'ektning xavfsizligini aniq ko'rsatkich va mezonlar asosida chuqur tahlil qilish

orqali ustuvor loyihalarni belgilash va amalga oshirish;

Suv xo'jaligi sohasida resurstejamkor texnologiyalar, zamonaviy qurilish materiallari, ilg'or xorijiy tajribalarni keng qo'llash;

Suv xo'jaligi ob'ektlarini boshqarish, suvning hisobi va hisobotini yuritish hamda tegishli ma'lumotlar bazasini shakllantirishda raqamli iqtisodiyot sohasidagi ilg'or ishlanma va texnologiyalarni joriy qilish;

Suv xo'jaligi sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirishni tizimli tashkil etish, suv xo'jaligi tashkilotlari bilan ta'lim va ilmiy muassasalar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, fan va texnika yutuqlarini amaliyotga joriy etish;

Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish bo'yicha davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalar va texnik ko'mak mablag'larini (grantlar) jalb qilish, shuningdek, suv xo'jaligi sohasidagi xalqaro tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etish

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Katta va alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Suv xo'jaligi ob'ektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi etib qayta tashkil etiladi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasidan sun'iy suv ob'ektlarida suvdan oqilona va samarali foydalanilishi hamda suvdan foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlashga mas'ul bo'lgan 295 ta xodimlar shtat birligi bilan birga Inspeksiyaga o'tkaziladi.[4]

Suv iqtisodiyoti suv resurslarini samarali va barqaror boshqarishni nazarda tutsa, iqtisodiyot jamiyatda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, iste'mol qilish va taqsimlashni anglatadi. Bu ikki tushuncha bir necha jihatdan o'zaro bog'langan:

1. Qishloq xo'jaligi: Suv qishloq xo'jaligi faoliyati uchun zarurdir va suvni samarali boshqarish qishloq xo'jaligi samaradorligida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Suvni tejaydigan sug'orish texnikasi va texnologiyalari suvdan foydalanishni optimallashtirish va fermerlar xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi va qishloq xo'jaligining barqaror va daromadli sektoriga hissa qo'shadi.

2. Sanoat: Ko'pgina sanoat korxonalari ishlab chiqarish, energiya ishlab chiqarish va tog'-kon sanoati kabi faoliyati uchun suvga tayanadi. Sanoatlarda suvni samarali boshqarish amaliyoti xarajatlarni tejashga, mahsuldorlikni oshirishga va atrof muhitga ta'sirni kamaytirishga olib kelishi mumkin. Boshqa tomondan, suv tanqisligi yoki suv infratuzilmasining yetarli emasligi sanoat faoliyatini buzishi va iqtisodiy o'sishga ta'sir qilishi mumkin.

3. Turizm: Turizm ko'pincha plyajlar, ko'llar va daryolar kabi

suv resurslariga bog‘liq. Toza va mo‘l suv havzalarini saqlash sayyohlarni jalb qilish va tegishli biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun juda muhimdir. Suvni samarasiz boshqarish yoki ifloslanish turizm daromadiga zarar yetkazishi va turistik yo‘nalishlarda iqtisodiy rivojlanishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

4. Infratuzilma va kommunal xizmatlar: Suv ta‘minoti va kanalizatsiya

infratuzilmasining yetarli darajada bo‘lishi iqtisodiy rivojlanish va aholi salomatligi uchun juda muhimdir. To‘g‘onlar, quvurlar va tozalash inshootlari kabi suv infratuzilmasiga investitsiyalar uy xo‘jaliklari, korxonalar va sanoat korxonalariga ishonchli suv xizmatlarini ko‘rsatish orqali iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirishi mumkin.

5. Suv narxlari va bozor mexanizmlari: Samarali suv narxlari va bozor mexanizmlari suvni tejashni rag‘batlantirishi va suv resurslaridan samarali foydalanishni rag‘batlantirishi mumkin. Iqtisodiy signallar suvni baholash va undan foydalanish narxini belgilash orqali jismoniy shaxslar va korxonalarni yanada barqaror suv amaliyotiga yo‘naltirishi mumkin.

6. Iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi: Iqlim o‘zgarishi suvning mavjudligi va sifatiga ta‘sir qiladi va bu ko‘plab mintaqalarda suv tanqisligining kuchayishiga olib keladi.[5]

Xulosa. Suv tanqisligi muammolarini hal qilish uchun innovatsion yechimlar va investitsiyalar talab etiladi, bu suvni tejaydigan texnologiyalar, suvni qayta ishlash va tuzsizlantirish kabi sohalarda iqtisodiy imkoniyatlarni ishga solishi mumkin. Umuman olganda, barqaror suv iqtisodiyoti iqtisodiy o‘rish va rivojlanishni qo‘llab-quvvatlagan holda suv resurslarining mavjudligi va sifatini ta‘minlash uchun juda muhimdir. Suvni boshqarish va iqtisodiy faoliyat ehtiyojlarini muvozanatlash uzoq muddatli farovonlik va ekologik barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 01.11.2016 yildagi 378-son. Surxondaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari tarkibini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2019 yildagi PF-5853-son. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
3. Nurmatov N.J., Ro‘ziyev O.A., Gulmatov J.Q., Berdiyev S.R. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti - (O‘quv qo‘llanma), Toshkent, 2011,

304 bet.

4. <https://lex.uz/acts/-12328>.
5. <https://yuz.uz/uz/news/suv-resurslaridan-samarali-foydalanish-hisobiga-kamida-7-milliard-kub-metr-suv-iqtisod-qilinadi>.
6. <https://kadastr.uz/uz/news/news-01:04-03-2022>.



***Qurbonova Charos Toshmurod qizi***

2004.11.01 Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani Yangihayot MFYda tug‘ilgan. Guliston davlat universiteti talabasi.

## **DUNYOVIY MUAMMOLARNI YECHISHDA TABIIY GEOGRAFIYANING O‘RNI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada global muammolarning qanday paydo bo‘lganligi va uni yechish uchun nimalar qilish kerak, tabiiy geografiyaning bu muammolarga qanday aloqasi mavjud. Hozirgi kunda qanday muammolar insoniyatga xavf tug‘dirishi mumkin va saqlab qolish uchun nimalar qilish kerakligi haqida yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** Dunyoviy muammolar, globalistika, prognoz, okean, landshaft, geologiya, geomorfologiya, botanika, Orol muammosi

Dunyoviy muammolar fanlararo muammo bo‘lganligi uchun ularni eng yangi fan tarmog‘i globalistika fani o‘rganadi. Lekin hozircha bunday fan mukammal bo‘lib shakllanmaganligi uchun tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda hal qilinmoqda. Tabiiy fanlarning eng yorqin tarmog‘i - umumiy tabiiy geografiya integral fan bo‘lganligi sababli bu masalalarni asosli yechish imkoniyatiga ega. Umumiy tabiiy geografiya dunyoviy, mintaqaviy va mahalliy ko‘lamdagi ekosistemalarda ekologik muvozanatni saqlab qolish muammosini tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilish orqali ijobiy takliflar va xulosalar yaratishi mumkin. [1]

**Asosiy qism.** Muammolarni prognoz qilish o‘z navbatida 3 ga ya‘ni sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliyga bo‘linadi. Sayyoraviy prognozlar ma‘lum bir hududga bog‘lanmagan bo‘lib, geografik qobiq doirasidagi, butun insoniyatga daxldor muammolarga bag‘ishlanadi. Sayyoraviy geografik prognozlarning asosiy maqsadi insoniyatning kelajakdagi hayotini va Yerni saqlab qolishga qaratilgan muammolarni oldindan

prognoz qilishdir. Mintaqaviy prognozlar biron mintaqa doirasida bir nechta davlatlarga daxldor muammolarning kelajakdagi o'zgarishini oldindan asoslab berishga qaratiladi. Ma'lum bir muhandislik inshooti yoki inshootlar guruhining tabiiy muhitga ta'sirini oldindan asoslab berish mahalliy geografik prognoz deb ataladi. Tabiatga ta'sir etadigan muhandislik inshootlari sanoat korxonasi, suv ombori, shaxtalar, yo'llar, aerodromlar, shaharlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Masalan, foydali qazilma koni ochiq usulda qazib olinadigan bo'lsa, hududda botiq hosil bo'ladi, tashlamalar vujudga keladi, yer osti suvlari sathi pasayadi, noxush jarayonlar rivojlanadi, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi ma'lum joylarda butunlay yo'qoladi, ma'lum bir joylarda esa katta o'zgarishlarga uchraydi.[2]

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi inson faoliyatining barcha jabhalarida hisobga olinishi zarur. Dastlab bu munosabat juda oddiy bo'lgan, ya'ni inson tabiatga, o'z navbatida, tabiat insonlarga me'yor doirasida ta'sir etib kelgan. Inson faoliyatining tabiatga ta'siri ortib borishi tufayli bu munosabat murakkab tus oldi. Natijada inson tabiatga qanchalar kuchli ta'sir etgan bo'lsa, tabiat ham shunchalar aks ta'sir eta boshladi.[3] Ayrim hududlarda tabiat o'zi yaratgan mavjudotlar orasida eng ko'p zararlarni insonlardan ko'radi. Landshaftlarda komponentlarning beqarorlashuvi kuzatildi. O'zini-o'zi saqlash va tiklash xususiyatlari zaiflashdi, tabiiy muhit ifloslandi. Inson o'z manfaatlari yo'lida qilgan rejasiz harakatlari tufayli yaratilgan va yashash uchun noqulay bo'lgan ekologik sharoitda faoliyat ko'rsatishga majbur bo'lmoqda. Natijada insonlarning sog'ligi va insonlarning ish faoliyatiga salbiy ta'sir etayotgan mahalliy, mintaqaviy va dunyoviy ekologik inqirozli hududlar paydo bo'ldi. Endilikda doimo tabiat imkoniyatlaridan ortiqcha narsalarni talab qilib kelgan inson tabiat bilan murosaga kelishga majbur ekanligini anglab yetdi. Bu muammolarni hal qilishda tabiiy geografiyaning bir necha tarmoqlari mavjud. Botanika- tabiat o'simliklarini, zoologiya hayvonot olamini, gidrologiya- yer osti va yer usti suvlarini, iqlimshunoslik- atmosferadagi jarayonlarni, geomorfologiya- relyefni, geologiya- tog' jinslarini, Yerning ichki va tashqi jarayonlarini, tuproqshunoslik- tuprog'ini alohida o'rgansa, tabiiy geografiya barcha tabiat komponentlari yaxlitligini o'rganadi. Demak, tabiiy geografiya tabiatni, tabiiy muhitni yaxlit majmuali o'rganish bilan bir qatorda, ulardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, qayta tiklash masalasini ham o'rganadi.[1]

Birgina mahalliy ekologik muammoni misol qilib keltiradigan bo'lsak, XX asrning o'rtalarida insonlar Mirzacho'lni o'zlashtira boshlashdi va natijada o'nlab nomzodlik va doktorlik desertatsiyalari yoqlandi. Ushbu ilmiy ishlarning natijasida Mirzacho'lning meliorativ holatini yaxshilashga oid ko'plab taklif va mulohazalar bildirildi.




Aniqlanishicha, inson tabiat kompleksining faqat suv komponentiga ta'sir ko'rsatgan. Sug'orish jarayonida yer osti suvlari yer yuzasiga yaqinlashgan. Parlanish yog'in –sochiga nisbatan 10-15 barobar yuqori bo'lganligi uchun sho'rlanish jarayoni kuchaygan. Relyef tekis bo'lganligi sababli yer osti suvlari oqimi juda past bo'lib, tektonik botiqlarda sho'rxok yerlar, ko'llar paydo bo'lgan.[1]

Faqatgina quruqlikda emas balki yer osti va yer usti suvlari, okeanlarda ham tabiiy ekologik muhit o'zgaradi. Dengiz, ko'l va daryolarning ifloslanishi deyarli bir-biriga o'xshashdir. Bularga neft, pestitsidlar, metall va turli kimyoviy moddalar salmoqli o'rinni egallaydi. Tabiiy sharoiti qulay, suv transportda jadal, sohilida ko'plab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar joylashgan dengiz, ko'l va daryolarning ekologik holati ancha tashvishli. Masalan, Shimoliy dengizga quyiladigan Reyn, Vezer, Elba, Temza daryolari 150 yildan ortiq davrdan beri dengizga tonnalab iflos chiqindilar keltiradi. Boltiq dengizining hamma qismlarida: fenol, detergentlar, xloridli uglevodorodlar- DDT, PXB, lindana, simob, qo'rg'oshin, benzpiren va boshqa zaharli kimyoviy moddalar uchraydi.[3]

**Xulosa.** Mintaqaviy va dunyoviy ekologik muammolarning sodir bo'lmasligi uchun inson tarixan tarkib topgan ekologik muvozanatni buzmasligi kerak. Masalan Orol muammosi dastlab mahalliy (1960-yil), so'ngra mintaqaviy (1970- yili) va dunyoviy (1980- yillarda) muammolar darajasiga ko'tarildi. Ekologik, atrof- muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, oziq-ovqat muammolarini ilmiy asosda yechishda tabiiy geografiyaning imkoniyatlari g'oyat katta. Tabiiy geograflar tabiatdagi har qanday o'zgarishlarning sabab va oqibatlarini oldindan bashorat qilishi mumkin. Negaki, tabiiy kompleksning tarkibiy qismi bo'lgan komponentlar: tog' jinsi, relyef, iqlim, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot olami o'rtasidagi o'zaro uzviy aloqa va aks ta'sirini har bir komponentning landshaft hosil qilishdagi vazifasini va hokazolarni faqat tabiiy geografiya mutaxasislarigina mukammal tadqiq eta oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. P.Baratov, A.Soatov Umumiy tabiiy geografiya „O'qituvchi" Toshkent. 2005.
2. A.A.Rafiqov, Q.N.Abirqulov, A.N.Xojimatov Ekologiya O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent. 2004.
3. P.Baratov. Tabiatni muhofaza qilish. Toshkent: O'qituvchi. 1991.



**Pirnazarova Asal**

2003-yil 18-oktabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumanida tug'ilganman. Hozirda Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Pedagogika yo'nalishi 2-bosqich talabasiman. „Quyosh Nuri" EVH a'zosi va shu Valontyorlik harakati tomonidan o'tkazilgan birqancha forumlar tashkilotchisi bo'ldim. Ko'pgina maqolalarim O'zbekiston va Chet el ilmiy jurnallarida, Xalqaro Kenya times jurnalida chiqqan. Xalqaro More books saytida „Orzular Ostonasida" nomli antologiyamni hammualliflikda chiqarganman. MDH Yetakchilari ilmiy-amaliy ko'rik tanlovida maqolam bilan ishtirok etdim. Institutimizda tashkil etilgan Wiki-club a'zosi hamda klubimiz tomonidan o'tkazilgan Kaawiki marafonida III o'rin sohibasi bo'ldim.

## **O'ZBEKISTONDA VA CHET ELDA OILA PEDAGOGIKASI RIVOJLANISH TARIXI**

**Abstrakt:** Ushbu maqolada oila pedagogikasi fanining ilmiy asoslari, O'zbekistonda va Chet elda rivojlanish tarixi, Sharq allomalarining oila, farzand tarbiyasi nikoh masalalarida bildirgan fikrlari, Chet elda oila tarbiyasi, diniy manbalarimizda oilaga bog'liq fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, nikoh, farzand tarbiyasi, ilmiy-tadqiqot metodlari.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy jabhalarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida oila masalasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Albatta, bu bejiz emas, chunki porloq ertamizning tamal toshi oilada qo'yiladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: «Xalqimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Axir oila ahil va totuv bo'lsa jamiyatda tinchlik-hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oila farovonligi-milliy farovonlik asosidir». Demak, mamlakatimizda oila farovonligini ta'minlash davlatimizning asl maqsadidir. Mamlakatimizda 1998-yilning «Oila yili» deb e'lon qiliishi va shu munosabat bilan «Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998-yilda amalga oshirilgan chora-tadbirlar Davlat Dasturi»ning qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq etilishi, Oliy Majlisning XI sessiyasida keng umumxalq muhokamasidan so'ng

«Oila Kodeksi»ning bir ovozdan qabul qilinishi, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 2-fevraldagi 54-sonli qaroriga binoan Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Markazining tashkil etilganligi hukumatimiz tomonidan oila faravonligi, tinch-totuvligi va barqarorligini ta'minlashga bo'lgan e'tiboridan dalolatdir.

Oila pedagogikasining predmeti: Oila pedagogikasi fani, o'z ustida ishlashi, izlanishi tanlangan vosita usullarini qo'llashi va natijasini ko'ra bilishini hamda tarbiyachilik san'atiga ega bo'lishi uchun o'rgatuvchi fandır. Oila pedagogikasi quyidagilarga amal qiladilar: • ta'lim-tarbiyaning zamonaviy talab darajasiga va tarbiya qonuniyatlariga amal qiladi; • oilada beriladigan tarbiya mazmuni; • oilada farzand tarbiyasida qo'llanadigan usul va vositalar; • insoniyatni ma'naviy rivojlanishi bilan oilada farzand tarbiyasining uyg'unligi; • oilada farzand tarbiyasidagi mahorat va madaniyatiga amal qilish.

Oila pedagogikasining maqsadi: • oila tarbiyasiga doir muammolarning holati, qonuniyatlarini o'rganishga qaratiladi.

Oila tarbiyasining vazifalari:

- oila tarbiyasiga doir bir butun muammolarni hal qilish;
- oilaviy tarbiyaning samaradorligini oshirish va uning davlatni ustuvor talablariga javob beradigan komil inson tarbiyalashdir.

“Avesto” tushunchasi lug'aviy jihatdan “o'rnatilgan, muqarrar qilingan qonun-qoidalar, hayotning asosiy yo'riqnomasi” ma'nolarini anglatadi. Nikoh va oila masalasi ijtimoiy munosabatlarning muhim asoslari sifatida muayyan davr va tuzumlar uchun o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Shu jumladan, zardushtiylar davrida ham ijtimoiy munosabatlarning istiqboli nikoh va oila rivoji bilan uzviy bog'liq ekanligi chuqur anglangan. Shu sababli hayotning asosiy yo'riqnomasi bo'lgan. “Avesto” asarida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Zardushtiylar balog'at yoshini aniq belgilashgan. 15 yoshga balog'at yoshi hisoblanib, ushbu yoshga to'lgan o'smirlar e'tiqod ramzi sifatida beliga yung ipakdan to'qilgan kamar bog'lab yurishlari, “otashparastlar ibodatxonasida o'tkaziladigan diniy marosimlarda qatnashishi shart bo'lgan”. Otashparastlik ibodatxonasida diniy tarbiya yo'lga qo'yilgan bo'lib, u bola 7 yoshga to'lgandan so'ng tashkil etilgan.

Qur'oni karimda jamiyat hayotining barcha sohalariga oid g'oyalar bilan birga nikohning muqaddasligi, oilaning har bir inson uchun qadrlilik maskan ekanligi hamda oilaviy munosabatlarning shaxs kamolotidagi o'rni borasidagi qarashlari alohida o'rin tutadi.

Islom dinining muqaddas manbai bo'lgan – Qur'oni karim g'oyalarini o'rganish asosida ularning “Oila pedagogikasi” fani mazmunini boyitishdagi imkoniyati katta ekanligiga guvoh bo'linadi. Manbada ilgari surilgan quyidagi g'oyalar bu o'rinda g'oyat samarali va ahamiyatlidir: - nikoh qurish va uni bekor qilish tartibi (Qur'oni karimda nikohning

muqaddasligi, har qanday sharoitda ham uni imkon qadar saqlab qolish zarurligi aytiladi);- oilaviy munosabatlarni to'g'ri, samarali yo'lga qo'yish shartlari;- ota-onalar va farzandlar, oilaning boshqa a'zolari ega bo'lgan huquq va majburiyatlar;

- oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan munosabatlarida etakchi o'rin tutadigan g'oyalar;

- farzandlartarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etishga nisbatan yondashuv mazmuni;- oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan ziddiyatlar, ularning oldini olish va bartaraf etish yo'llari;

- oila xo'jaligini oqilona yuritish va oila a'zolari o'rtasidagi mehnat taqsimoti;- oila sharoitida mulkiy munosabatlarni tashkil etish shakllari;- oila a'zolari o'rtasidagi mulkni taqsimlash tamoyillari va b. Nikoh va oilaning ijtimoiy ahamiyati Qur'oni karim "Rum" surasining

21-oyatida shunday ifodalanadi: "Uning alomatlaridan (yana biri) – sizlar (nafsni qondirish jihatidan) taskin topishingiz uchun o'zlaringizdan juftlar yaratgani va o'rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir".

Sharq mutafakkirlarining oila pedagogikasiga oid fikrlar. Oila tarbiyasi masalalari Sharq mutafakkirlarining shaxsga ta'lim berish, unda ijobiy sifatlarni shakllantirish borasidagi qarashlarining muhim unsuri sanaladi. Xususan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Unsurul Ma'aliy Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning asarlarida bolalarni oila sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga oid g'oyalar keng yoritilib, bu boradagi samarali yo'llar ko'rsatib berilgan.

Agarda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o'z asarlarida ota-onalarni ikki toifa (tug'ilish otasi (ya'ni, biologik ota) bolaning jismoniy yaratilishi, unib-o'sishi uchun mas'ul bo'lsa, ta'lim beruvchi ota (ya'ni, ma'naviy ota) esa bolaning ruhiy jihatdan to'laqonli voyaga etishi uchun javobgar kabi toifa)larga ajratgan bo'lsa, Abu Rayhon Beruniy inson tabiatining, eng avvalo, oila muhitida shakllanishini alohida qayd etib o'tgan. Alloma ota-onalarga bola ruhiyatini mo'tadil saqlashni tavsiya etadi. Bola ruhiyatini mo'tadil saqlash uni qattiq g'azablanish, qo'rqish, xafalik, jismoniy toliqish hamda uyqusizlikdan muhofazalash orqali ta'minlanishini aytadi. Shuningdek, ota-onalarni bolalar xohlagan va ular uchun foydali bo'lgan narsasini topishga, ularni imkon qadar yoqtirmagan narsalaridan uzoqlashtirishga undaydi. Allomaning qayd etishicha, ota-onalar bolaga nisbatan bir xil munosabatda bo'lishlari uni to'g'ri tarbiyalash uchun nihoyatda ahamiyatli. Ota-onaning bolaga nisbatan turlicha munosabatda bo'lishlari uning xulqida salbiy odatlar namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratib beradi.

Qadimgi yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga

yondashuvlari. Oila va oilaviy munosabatlar masalalari juda qadimdan o'rganilib kelingan. Xususan, qadimgi Yunoniston va Rimda davlat boshqaruv tartiblarining joriy etilishi oilaning davlat rivojidagi ahamiyatini asoslab berishni taqozo etdi. Bunday mas'uliyatli vazifa faylasuflar – Suqrot, Arastu, Aflotun, Demokrit, Plutarx, Kvintilian kabi olimlar har tomonlama etarli darajada hal qilib berilgan. Ularning asarlari bilan tanishish shunday xulosaga kelish imkonini beradi. Quyida yuqorida nomlari keltirilgan faylasuflarning asarlarida oila va oilaviy munosabatlar masalalarining o'rni xususida so'z yuritiladi.

Suqrot (mil.av. 447-399 yy.; Afina) – qadimgi yunon mumtoz falsafasining asoschisi, afinalik birinchi faylasuf. Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joiz, allomaning fikrlarigina emas, balki o'zi ham bolalarni oilada tarbiyalashda boshqalarga shaxsan ibrat bo'la olgan. Suqrot oilada bolalarni davlat qabul qilgan qonunlarni hurmat qilish, ularga so'zsiz amal qilishga o'rgatishni lozim, deb hisoblaydi.

Manbalarda yoritilishicha, allomani dinga qarshi chiqqanlikda ayblab, zindonband etishganda shogirdlari uni zindondan ozod qilish va qochirib yuborish chorasini topganlar. Biroq, faylasuf “Afina qonunlarini tanqid qilib, ularni etuk emas deb bilsam-da, bu qonunlarni afinaliklar qabul qilgan ekan, ularga bo'ysunmaslikka haqqim yo'q. Yoshim bir joyga borganida ularni buzib, avlodlarning tavqi-la'natiga qolmay” deb zindondan qochib ketmagan. Qolaversa, o'ziga chiqarilgan hukmga e'tiroz bildirmay, o'limini ixtiyoriy tan olib, bir qadah zahar ichgan. Faylasuf o'z ta'limotini og'zaki ravishda ko'cha-ko'y, maydon va hiyobonlarda shogirdlari bilan tashkil etilgan suhbatlar asosida bayon qilganligi sababli uning birorta ham yozma asari mavjud emas. Suqrotning oila tarbiyasi borasidagi qarashlari uning shogirdlari – Ksenofont, Aristofan va Aflotunlarning asarlari orqali bugungi kunga qadar etib kelgan. Xususan, Ksenofont “Suqrot haqida esdaliklar” asarida o'z ustozini haqida so'z yuritib, uni oliyanob ustoz, axloq-odob borasida tengsiz inson, chin insoniy fazilatlarini qadrlovchi shaxs sifatida ulug'lagan bo'lsa, Aflotun ham o'z ustozini chuqur mulohazali, insonni ulug'lovchi donishmand siymosida gavdalantirgan. Aflotinning o'z ustozini borasidagi mulohazalari uning “Suqrot” nomli asarida o'z ifodasini topgan. Suqrot ta'limotiga ko'ra jamiyatning taraqqiyoti tinchlik, osoyishtalik, farovonligi esa fuqarolarning yuksak axloq, odobga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Shaxsning yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlari oila muhitida shakllanadi. Alloma fuqarolarni oila muhitida bolalarni bilimli qilib tarbiyalashga da'vat etgan. Uning “Kuch – bilimda”, “Men faqat hech narsani bilmasligimni bilaman”, “Qancha ko'p bilsam, shuncha ko'p bilmasligimni bildim”, “O'z-o'zingni anglagin va bilgin”, “Kim o'zini yaxshi bilsa, uning uchun nima foydali ekanligini biladi va o'zining nimaga qodirligini-yu, nimani uddalay olmasligini tushunadi” kabi

g'oyalari faylasuf ta'limotining markazida turuvchi komil inson qiyofasini yoritishga xizmat qiladi. Aristotel (mil. av. 384-322 yy.) – qadimgi Yunonistonda o'ziga xos falsafiy pedagogik ta'limot yaratgan mashhur mutafakkir. Uning oila tarbiyasi bilan bog'liq fikrlari, ayniqsa, diqqatga sazovor. Allomaning fikricha, jamiyatni davlatdan ajratib bo'lmaydi.

Aristotel jamiyat a'zolarini quyidagi uch toifaga ajratadi: 1) boylar; 2) o'rta hollar; 3) kambag'allar. Faylasuf boy hamda kambag'allar toifasini xush ko'rmaydi. Zero, uning fikricha, jamiyatdagi barcha noxushliklar, siyosiy beqarorlik, turli tahdidlar aynan shu toifa kishilarining xatti-harakatlari evaziga yuzaga keladi. Aholining eng ideal toifasi – o'rta hol kishilar sanaladi. Ular tufayli jamiyat rivoj topadi, yurtda tinchlik o'rnatiladi, vaziyat barqarorlashadi. O'z asarlarida oila va oilaviy munosabatlar masalasiga to'xtalib o'tar ekan, faylasuf oila muhitida shaxsda tarkib topadigan ezgu fazilatlarni ham uch guruhga ajratadi.

Ular:

- 1) dianoetikaga asoslangan (intellektual) fazilatlar (ular, asosan, ta'lim-tarbiya jarayonida uning natijasi sifatida shakllanadi);
- 2) aqlga asoslangan fazilatlar;
- 3) axloqiyirodaga asoslangan fazilatlar (ular urf-odatlarida shakllanadi).

Insonning baxt-saodati haqida fikr-yuritib, mutafakkir uni umrning kuchg'ayrati, energiyasi deya ta'riflaydi. Har qanday shaxs ezgu fazilatlar hamda bu bilan bog'liq ravishda baxt-saodat sohibi bo'la olmaydi. Ezgu fazilatlarni o'zida namoyon qila olgan insongina baxtli, saodatli bo'lishni da'vo qila oladi. Allomaning fikriga ko'ra, ezgulik ijtimoiy sub'ektlarning tabiatiga xos degan fikr noto'g'ridir. Tabiat ularga faqatgina ezgu fazilatlarga ega bo'lish imkonini beradi. Ularning sohibiga aylanish esa kishilarning o'ziga, ularning xohishirodasiga, faolligiga bog'liq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Oila pedagogikasi" fanining istiqboli bevosita oila, oila munosabatlariga oid masalalarda turkum ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishiga bog'liq. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning pedagogik nuqtai nazardan oqilona tashkil etilishi, kutilgan natijalarga erishish ilmiy-pedagogik metodlarning to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Nikoh, oilaviy munosabatlar va farzand tarbiyasi masalasi o'zbek xalqi tarixidan juda qadimdan o'rganib kelingan.

Zardushtiylik dinining muqaddas manbai – "Avesto" asarida, milliy madaniy qadriyatlarimizning muhim tarkibiy qismi bo'lgan Islom madaniyati g'oyalarini o'zida aks ettirgan Qur'oni karimda, shuningdek, Sharq mutafakkirlarining asarlarida komil inson shaxsi, uni voyaga etkazishda asosiy o'rinni egallovchi oila, unda tashkil etiladigan bolalar tarbiyasi masalalarining tahliliga alohida o'rin ajratilgan. Ularda qayd

etilishicha, har bir oila jamiyatning kichik bir bo'g'ini. Minglab oilalarning o'zaro birlashuvi esa jamiyatni hosil qiladi.

Shunday ekan, har bir oila, unda qaror topgan tarbiyaviy muhit bevosita jamiyatning taraqqiyotini belgilab beradi. Oila va jamiyatning o'zaro aloqadorligi o'z-o'zidan ota-onalar zimmasiga bolalar tarbiyasini to'g'ri tashkil etishdek muhim ijtimoiy vazifani yuklaydi. Oila tarbiyasi va uni samarali tashkil etish masalasi xorijiy mamlakatlarida barcha davrlar uchun muhim ijtimoiy muammolardan biri sifatida e'tirof etib kelingan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2015. – 21-22-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2010.
3. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura –Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 14 -bet.
4. Karimov I.A. “Oila farovonligi - millat farovonligi” O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi maruzasi. Xalq so'zi, 1997 yil 5-dekabr.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 52-bet.



**Ziyakulova Marifat Maxammadovna**

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani A. Qodiriy MFYda tug‘ilgan. Hozirda Toshkent shahar Chilonzor tumanida istiqomat qiladi. Nizomiy nomidagi TDPU kechki bo‘lim fakulteti fizika va astronomiya yo‘nalishi 401-guruhi talabasi.

## CHEKSIZ KOINOT

**Annotatsiya:** Ushbu maqola astronomiya fanida qilinayotgan yangiliklar va izlanishga barcha yoshlarni jalb etish, qiziqtirish va ularning o‘z olamlari haqida qisqacha bo‘lsada ma‘lumotga ega bo‘lishlarini ta‘minlashdan iborat.

**Kalit so‘z:** Koinot, cheksizlik, kosmik zarralar, kosmik nurlar, osmon jismlari, Qora o‘ra

Koinot – makon va zamonda bepoyon borliq, cheksiz moddiy olam. Olamda sodir bo‘ladigan turli hodisalar o‘zaro bog‘liq va bir-birini taqozo etadi. Ular fazo va vaqtga bog‘liq holda rivojlanadi. Bu aloqalarga bo‘ysunadigan qonuniyatlarni o‘rganish tabiatshunoslikning asosiy vazifasidir. Moddaning koinotda makon va zamonda taqsimlanishi, turli kosmik jismlar va ularning tizimlari astronomiyada, koinotning umumiy tuzilishi, o‘tmishi va kelajagiga oid masalalar kosmologiyada o‘rganiladi. Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida insoniyat koinotning biror chegarasini o‘rgana olgan. Koinot usullari va astronomik asboblarni takomillashgan sari, koinotni kuzatish chegaralari kengayib, tadqiqotlar yanada chuqurroq, insoniyat bilimi haqiqatga yanada yaqinroq bo‘lib borgan. Inson ko‘rishi faqat mikroskop bilan ko‘ra oladigan mikroskopik zarralar, shuningdek, ulkan sayyoralar va yulduz klasterlari odamlarning tasavvurini hayratga soladi. Qadim zamonlardan beri ota-bobolarimiz koinotning paydo bo‘lish tamoyillarini tushunishga harakat qilishgan, ammo zamonaviy dunyoda ham "koinot qanday paydo bo‘lgan" degan savolga aniq javob yo‘q. Balki inson aqli bunday global muammoga yechim topish uchun berilmagandir? Yerning turli burchaklaridan kelgan turli davr olimlari bu sirni tushunishga harakat qilishgan. Barcha nazariy tushuntirishlarning asosini taxminlar va hisob-kitoblar tashkil etadi. Olimlar tomonidan ilgari surilgan ko‘plab farazlar koinot haqida tushuncha yaratish va uning keng ko‘lamli tuzilishi,



kimyoviy elementlarining paydo bo'lishini tushuntirish va kelib chiqish xronologiyasini tavsiflash uchun mo'ljallang. Dastlab, inson o'zi yashab turgan joy va uning yaqin atrofini, osmonda ko'zga tashlanib turadigan jismlarni birgalikda koinot deb tushungan. Yerning sharsimonligi ma'lum bo'lgandan keyin markazda. Yer va uning atrofida aylanuvchi g'oyat katta osmon gumbazi koinot hisoblangan. Yerning koinotdagi vaziyati haqidagi, sayyoralarning harakat qonunlari haqidagi va boshqa fanlarga asos solindi. Quyosh sistemasi haqida haqiqatga birmuncha yaqin tasavvur vujudga keldi. Koinotni kuzatishdagi yangi texnik vositalar (kosmik zondlar, kosmik apparat)ning paydo bo'lishi yangi kashfiyotlarning yaratilishiga olib keldi. Masalan, Mars, Yer, Oy, Venera, Merkuriy, Yupiter va ularni qurshab olgan fazolar haqida ko'pgina yangi ma'lumotlar olindi. Yer sun'iy yo'ldoshlardan foydalanish natijasida fanning amaliy tarmoqlari, xususan, kosmik yershunoslik– tabiiy muhit, yer resurslari, geografiya, geologiya, okeanshunoslik va boshqa masalalarni o'rganuvchi fanlar majmui vujudga keldi. Koinotning o'rganilayotgan qismi chegaralanganligi uning makon va zamonda cheksizligiga zid bo'lmay, fan va texnikaning ayni paytdagi taraqqiyot chegarasini belgilaydi. Koinotdagi moddalarning asosiy tarkibi plazmadan iborat. Biroq koinotda o'ta zich tabiatli („qora tuynuk“), shuningdek, asosan, aynigan gazlardan iborat bo'lgan obyektlar (neytron yulduzlar) ham bor. Yulduzlar va galaktikalarning o'ziga xos xususiyatlari uning sirtida portlashlar va moddalarning otilishi vaqtida yuqori faollik mavjudligi hisoblanadi (yangi yulduzlar, chaqnaydigan yulduzlar, yadrosi faol galaktikalar).

Koinot haqidagi qarashlar qadimdan insonlarni qiziqtirib kelgan bo'lsada hozirgi kunga qadar aniq bir to'xtamga kelinmagan. Koinot haqidagi gipotezalar yaratilishi, o'rganishlar natijalari samaradorligi hozirgi kunda ko'rishimiz mumkin. Ammo koinotning sirlarini o'rganib bo'lishingizgacha milliardlab yillar sarflanishi mumkin. Koinotning chegarasi bormi yoki yo'q bu haqda aniq bir to'xtamga kelinmagan. Chunki u haqda aniq ma'lumot yo'q. Zamonaviy teleskoplar ham koinotning chegarasini kuzatishga ojiz. Oddiygina bir misol Qora o'ra yoki Qora tuynuk :agar u o'ra bo'lsa kun kelib to'lishi mumkinmi? Yoki tuynuk bo'lsa u yutib yuborayotgan Kosmik zarralar, nurlar qayerga borib tushadi. Yoki tuynukning davomida boshqa bir koinot boshqa bir jonzotlar bo'lishi mumkinmi? Qora o'ra yoki tuynuk uning ortida nima borligi ma'lum bo'lsa koinotning eng katta siri ochilgan bo'lardi. Agar koinotning chegarasi bo'lsa demak bizning koinotimizga o'xshash koinotlar qo'shnilarimiz bo'lishi mumkin. Qo'shni galaktikalarga o'xshab. Agar cheksiz bo'lsachi, uni hattoki tasavvur qilishga insoniyat ojiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Astronomiya M.Mamadazimov. Astronomiya darsliklar
2. „Koinot“, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi: 4-jild (Zebunniso — Konigil). Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
3. „Definition of COSMOS“ (2023-yil 20-iyun). 2023-yil 7-iyunda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 4-iyun.
4. ↑ „Cosmos“. Dictionary.com. 2019-yil 1-aprelda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2017-yil 1-iyun.



#### ***G'ayratova Gulzoda San'at qizi***

Buxoro Davlat universiteti Filologiya fakulteti (O‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bakalavri (2019-2023) va hozirda Buxoro davlat pedagogika instituti magistri.

1999-yil 9-noyabrda Peshko‘ tumanida tug‘ilgan, millati o‘zbek.

2022-yil Navoiy nomli davlat stipendiyasi va 2023-yil Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi, 2023-yil O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi tomonidan o‘tkaziladigan Respublika yosh ijodkorlarning an’anaviy Zomin seminari ishtirokchisi, 2020 yildan buyon “Respublika yosh olimlari kengashi” a’zosi.

Ijod namunalari "O‘zbekiston adabiyoti va san’ati", "Ma’naviyat sarchashmasi", "Peshko‘ ovozi" gazetalari, "Saboq", "Targ‘ibotchi", "O‘zbekistonda ta’lim" jurnallari va Hindistonning xalqaro "Namaste India", "Litterature" jurnallarida muntazam chop etilgan.

"Erkin A‘zam hikoyalarini ta’lim jarayonida o‘rganish" (2021-yil), "Sharof Rashidov asarlarini ta’lim jarayonida interfaol usulda o‘rganish" (2022-yil) nomli uslubiy qo‘llanmalari, "Dilroz" (2016- yil), "Sog‘inch sohillaridan satrlar" (2017-yil), "Mo‘jizalar mamlakati", "Muxlis" (2018-yil), "Nasriy chizgilar" (2022- yil) nomli qissa va hikoyalar to‘plamlari nashr etilgan.

2022-yilda Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida nashr etilgan "XXI vek-Molodej novogo Uzbekistana" antologiyasi, Turkiyaning Istanbul shahrida nashr etilgan "Turkchanning dunyodagi o‘zbek ovozi"

antologiyalarida ijodiy hikoyalari nashr etilgan.

2022-yil Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan "O'zbekistonlik ekanligimdan faxrlanaman!" mavzusida o'tkazilgan "Eng yaxshi maqola" respublika ko'rik-tanlovida 1- o'rinni g'olibi.

## **SHAROF RASHIDOVNING "QUDRATLI TO'LQIN" ROMANI LINGVOPOETIKASI**

**ANNOTATSIYA:** Badiiy asr tili filologiya ilmining eng murakkab va dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan. Hozir ham shunday. O'zbek filologiyasida bu masalaga qiziqishning tobora ko'payib borishi tasodifiy hodisa emas. Chunki asar tili uning har bir qismida, epik bayon, obrazlar talqini, poetikasi va boshqalarda ishtirok etadi. Shu bois badiiy asarlarni yaxlit holda, matn asosida kompleks o'rganishga e'tibor kuchaymoqda.

**KALIT SO'ZLAR:** O'zbek adabiyoti, lingvistik tahlil, lingvopoetika, badiiy-estetik tomon, Sharof Rashidov, "Qudratli to'lqin".

Bu jarayon esa asar tilidagi lisoniy va badiiy jihatlarni lingvopoetik hodisasini o'zaro aloqada tahlil qilishni taqozo qiladi. Badiiy asr tili tilshunoslar uchun ham, adabiyotshunoslar uchun ham tadqiq obyektidir. Lekin bularning o'ziga xos xususiyatlarini ham inkor etib bo'lmaydi. Tilshunoslar fonetika, leksika, semantika, morfologiya kabi sohalar bo'yicha badiiy tilni izohlasalar, adabiyotshunoslar tilga badiiy-estetik tomondan yondashadilar. Boshqacha aytganda, asar tilini o'ziga xos xususiyatlarini to'la ochib berish uchun lisoniy va badiiy tahlil, ya'ni tilshunoslik va adabiyotshunoslikning mustahkam aloqasi asosiy shart hisoblanadi. Zero, lingvistik tahlil bilan estetik tahlil uyg'unlashgan bo'lishi shart. Bunday uyg'unlik asosida, tabiiyki, "so'z" deb atalgan tushuncha va unga munosabat yotadi.

Ma'lumki, o'zbek milliy nasri o'zining muayyan tarixiy bosqichlariga ega. XX asr boshida shakllangan tom ma'nodagi nasr namunalari, xususan roman va qissalar hozirgacha milliy prozamidagi salmoqli o'rin tutib kelmoqda. Hamza, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon nomlari bilan bog'liq nasrimizning ilk namunalari yangi o'zbek adabiyotining keyingi bosqichlarida jadal davom etdi, janr, mavzu va uslub jihatdan takomillashdi. Yangi o'zbek nasrining 30-80 yillardagi rivojida G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Mirmuxsin, Shukur Xolmirzayev, Said Ahmad, O'lmas Umarbekov, O'tkir Hoshimov va boshqa adiblarning xizmatlari katta bo'ldi. Ular badiiy nasrning ocherk, hikoya, qissa, roman, epopeya kabi shakllarida turli mavzudagi asarlar yaratdilar va o'zbek adabiyoti xazinasini boyitdilar. O'zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri Sharof Rashidov badiiy til bobida o'ziga xos maktab yaratgan so'z san'atkoridir. Uning betakror til mahorati juda ko'p yozuvchilarga ibrat bo'lganligi va bundan keyin ham badiiy so'z olamiga


qadam qoʻyadiganlarning necha-necha avlodlari bu badiiy moʻjiza sirlaridan saboq olishi shubhasizdir. Alohida taʼkidlamoq joizki, Sharof Rashidov oʻzining barakali badiiy ijodi bilan oʻzbek adabiy tilining rivoji va boyishiga jiddiy hissa qoʻshgan hassos adibdir. Uning sheʼriy, nasriy, dramatik, publitsistik va boshqa asarlarida oʻzbek tilining goʻzalligi, boyligi, tunganmas ifoda imkonlarini oʻzini toʻliq namoyon eta olgan. Bu asarlarni oʻqiganda mahoratli adibning oʻzbek xalq tili xazinasini nechogʻli tugal egallaganligiga, betakror soʻz ijodkori sifatida bu xazinadagi unsurlarni oʻz badiiy niyatiga muvofiq tarzda saylay bilganiga, tildagi tovlanishlarga yanada sayqal-u jilo bera olganligiga, bu birliklardagi maʼno injaliklaridan juda ustalik bilan foydalana olganiga takror va takror amin boʻlmoq va hayratlanmoq mumkin. Sharof Rashidovning nasriy nutqdagi badiiy mahoratining namunasi boʻlgan “Mehrobdan chayon” romani nafaqat yozuvchining estetik idrogini, balki yaxlit oʻzbek tilining estetik mohiyatini ham namoyon eta oladigan asardir. Bu roman tilining lingvopoetikasini oʻrganish asosida Sharof Rashidovning badiiy til mahoratini koʻrsatish mumkin. Shu bilan birga bu goʻzal romanning lingvopoetik tadqiqi usta soʻz sanʼatkori tasarrufidagi oʻzbek tili oʻzining estetik vazifasini nechogʻli mukammal bajarishini dalillaydi.

Oʻzbek romanchiligina emas balki, badiiyati, lisoniy va estetik xususiyatlari, ayniqsa adabiy asarda soʻz, ibora va birikmalardan foydalanish, xalq tili imkoniyatlarini mahorat bilan qoʻllanilishi jihatidan ham ibratlidir. Bu hol muallifning til va badiiyat ilmining yirik bilimdoni, soʻz ustasi ekanidan guvohlik beradi. Adibning “Qudratli toʻlqin”, “Gʻoliblar” romanlari badiiy til mahoratining keng koʻlamli qirralarini aks ettirish namunasi. Yozuvchi oʻzining birinchi romanidayoq til xususiyatlari bilan badiiy asarga qoʻyiladigan barcha talablarga javob bergan edi va roman tili soda, boʻyoqdor, ifoda va tasvir kuchi jozibador edi. Adabiyotning soʻz sanʼati ekanligi, uning birlamchi unsuri til ekanligi haqidagi haqiqatni hech kim hech qachon inkor etgan emas. Kishilik tarixida adabiyot atalmish dunyoni obrazli idrok etish sanʼati yaralibdiki, bu sanʼatning asosiy ifoda vositasi boʻlgan soʻz, tilni tadqiq etishdek mashaqqatli yumush inson tasavvuri va tafakkurini muttasil band etib keladi.

Soʻzning maʼno jihatdan koʻlamdorligi ham til badiiyatining eng muhim omillaridir. Bular romanda quyidagi turlar shaklida uchraydi: xalq tili unsurlari, dialektga oid ifodalar, diniy soʻzlar, tarixiy voqealar sanalariga doir atamalar, izohlar, yangidan yasalgan soʻzlar, hikmatlar, turgʻun va yumoristik ifodalar. Bularni qoʻllashda adib oʻsha davrda isteʼmoldagi soʻzlarni oʻz holicha ishlatadi. Yuqoridagi xususiyatlar romandagi personajlar xarakteri, nutqi va xatti-harakatlarini taʼsirchan va oʻziga xos talqin etishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim uchun 2030-yilgacha rivojlantirishni rivojlantirishni yaxshilash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlanish loyihasini ishlab chiqish to‘g‘risida”gi 2020-yil 29-oktyabr PF-6097-son Farmoni 8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. A.A.Murashkina. Hikoya turlarini lingvopoetik o‘rganish to‘g‘risida // Til falsafasi. Funktsional stilistika. Lingvopoetika. - M., 2004. - jild. 2. - B. 65-75.
4. R. A. Budagov. Filologiya va madaniyat. -M.: MDU, 1980, s. 278.
5. A.Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. - Toshkent: Ma‘naviyat, 2006. r. 12-13.
6. A.G‘ulomov. Badiiy adabiyot tili haqida // Adabiyot va san‘at, 1941, N1.
7. V.M.Jirmunskiy. Adabiyot nazariyasi. Poetika. Stilistika. – L.: Nauka, 1977, 18-bet.
8. M.Qodirov. Navoiyning tilshunoslik mahorati / Tilshunoslikning dolzarb masalalari (O‘zMU ilmiy maqolalar to‘plami). - Toshkent: Universitet , 2002. r. 85.



### ***Kamolova Sarvinoz O'rol qizi***

2004-yil 6-yanvar Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanida tug'ilgan. Hozirda doimiy istiqomad qiladigan joyi Toshkent sh. Yakkasaroy tumanida yashaydi.

Hozirda Alfraganus university Pedagogika va Psixologiya fakulteti 2-bosqich talabasi.

2024-yil 25-aprelda XALQ DEMOKRATIK PARTIYASI a'zosi bo'lgan. Hamda ilk maqolasi ham o'sha kezlari yozilgan. Ya'ni o'zi tug'ilib o'sgan viloyati "Jizzax" to'g'risida. Bo'sh vaqtlari kitoblar mutolaa qiladi hamda she'rlar yozadi. Ilk she'ri "Buvajon"nisiga atalgan.

## **JIZZAX IS FULL OF NEW OPPORTUNITIES**

**Annotation:** In the years of independence, the new economic infrastructures of the city of Jizzakh and the specific features of the city's economy are highlighted. Due to the independence, the possibility to transfer the economy and production relations from the administrative-command central planning mechanism to a free market economy was created in the city of Jizzakh. The essence of fundamental economic reforms implemented in the city of Jizzakh for the purpose of forming a socially oriented market economy was studied.

**Annotatsiya:** Maqolada mustaqillik yillarida Jizzax shahridagi yangi iqtisodiy infratuzilmalar va shahar iqtisodining o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Mustaqillik tufayli Jizzax shahrida iqtisodiyotni, ishlab chiqarish munosabatlarini ma'muriy-buyruqbozliq markaziy rejalashtirish mexanizmidan erkin, bozor iqtisodiyotiga o'tkazish imkoniyati vujudga kelganligi, bozor munosabatlarini shakllantirishning mamlakat sharoitiga, xalq turmush tarziga xos yo'lining nazariy asoslari tahlil etilgan. Jizzax shahrida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan tub iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyati o'rganilgan.

**Key words:** Literary cooperation, literary relations, priority of human value.

**Kalit so'zlar:** Adabiy hamkorlik, adabiy aloqalar, inson qadri ustuvorligi.

Our Honorable President visited Jizzakh region on April 8-9. During

the visit, he got acquainted with the projects implemented in the high-tech branches of industry, agriculture and other areas, and the new works being carried out to increase the income of the population in the neighborhoods. The priority tasks of starting the construction of new enterprises and socio-economic development of the region were defined. Today, all the residents of Jizzakh are talking about this with pride, and it is noted that this recent visit has pleased the people of the region with its fruitfulness. It is no secret that the events that took place during the visit and the opinions expressed raised the mood of the people of the region and inspired them to great goals. I must emphasize that during the visit, at the meetings, every opinion, assignment and recommendation was based on the goals of human interest, priority of human value, improvement of living conditions, and further increase of well-being. People were asked about their wishes, issues and suggestions for the development of the work. The president inspected the production process, raw stones and finished products in the "Basalt Uzbekistan" cluster in the Forish district of the Jizzakh region, and talked with blacksmith craftsmen. Officials have been tasked with locating 20 types of new high value-added projects worth \$500 million here. As a result, additional 2,000 jobs will be created. It is natural to ask what this means. As we all know, it serves to increase production, to expand their activities, and to create thousands of jobs. Therefore, we felt that huge and responsible tasks were ahead of us. We were once again convinced of the need to work together with the activists of the entire deputy corps. The head of our state visited the "New Uzbekistan" massif under construction in Sharof Rashidov district, he got acquainted with the work being organized there. There were no such large-scale constructions in the region before. In recent years, dozens of factories have been put into operation, new industries have appeared. Corresponding social infrastructure is also being built. Previously, this area of Sharof Rashidov district was a hillside, and it was almost unusable. Currently, a huge area of 140 hectares is under construction. The project is three-stage, and it is planned to build 105 apartment buildings with 3,936 apartments. The houses have 9, 12 and 16 floors, which is also a novelty in the conditions of Jizzakh. The head of our state gave instructions on building additional houses to the planned ones this year and creating a purchase opportunity for the population through preferential mortgage loans. Accelerating the construction of infrastructure networks, social institutions such as schools, kindergartens, trade and services, including roadside eateries the importance of organization was emphasized. During the visit, the President was in the Tuyogli neighborhood of Sharof Rashidov district and was interested in the living conditions and incomes of the residents. Making use of opportunities in neighborhoods and ensuring employment of the

population has risen to the level of state policy today. One of the most convenient and common options for this is the use of a farm. Such a factor can also be seen in Tuyogli neighborhood. Almost all of the 678 households have a plot. Their total area is 36 hectares. Fruit trees, vines and vegetables produce good crops. In the greenhouses of 314 households, rice crops and flower seedlings are grown. The head of our state visited the house of Abdumomin Karimov of this land. The garden of the house is 12 hectares, of which 7 hectares have a greenhouse. In addition, cattle, chickens and bees are raised. The owner of the house said that he grows crops and earns more than 200 million soums a year. In the example of this simple house in the average neighborhood, we see that it is in the family itself. If there is action, you can earn a good income. Homesteads at the disposal of the population, from it there are many people who say they use it. You just need to help them. For example, it is necessary to attract local enterprises and supply greenhouse devices, hives, beehives, seedlings, seeds and nutrients in a package at a low price - said Shavkat Mirziyoyev. After that, the President talked with "mahalla seven here". They talked about increasing the income and purchasing power of families by fully utilizing the opportunities in the areas. It was emphasized that this will be reflected in their quality of life, in their health, in the development of their children, and contribute to the development of society. The most gratifying aspect for us is that the President of Uzbekistan participated in the ceremony dedicated to the start of industrial and energy projects during his visit to Jizzakh [region](#). It is known that industrial development depends on sustainable energy. Therefore, these two areas are developing proportionally. In 2023 alone, 4,600 industrial enterprises were launched in our country. The industry grew by 6% and produced products worth 656 trillion soums. 7 large ones with a total capacity of 2.4 gigawatts thermal, solar and wind power plants were connected to the grid. In addition, 31 power plants with a capacity of 12 gigawatts are being built at the expense of foreign investments of 14 billion dollars. This year, 2.6 gigawatts of power will be connected to the grid in Navoi, Bukhara, Namangan, Tashkent and Kashkadarya. In general, due to the development of alternative energy, the share of "green" energy in generation will reach 30 percent this year. We are carrying out these works in order to create a decent living conditions for our people and continuous energy supply for the development of our industry. This has become a good tradition in all regions, he said Shavkat Mirziyoyev. There are many such projects in Jizzakh region. One of them is an industrial zone specializing in metallurgy, which will be established in Gallaorol district. SHE IS7 projects worth 500 million dollars will be implemented there. In particular, the production of fittings, steel balls, pipes, car bodies and



special equipment will be launched. There will also be a customs warehouse in the area. A total of 5,000 jobs will be created. The second project is a solar power plant to be built in Forish district in cooperation with China Poly Group and China Electric. The \$350 million complex will have a capacity of 500 megawatts. It produces 1.1 billion kilowatt hours of "green" energy per year. This means that the energy supply of 450,000 households will be improved. The first 200 megawatts of the plant will be connected to the grid later this year. President Shavkat Mirziyoyev pressed the symbolic button and started the construction of these two complexes. In the coming years, another 1,660 megawatt thermal, wind and solar power plants will be built in Sharaf Rashidov, Forish and Gallaorol districts. These will increase the standard of living of the population and give an additional impetus to the development of the economy. Most importantly, the given instructions and proposals mean that in the near future the efficiency of large enterprises will increase, many new jobs will be created, and the income of workers will increase significantly. It is not an exaggeration to say that the determined and ambitious people of Jizzakh, taking the initiative and taking the initiative, became more bold and strengthened in the path of ambitious goals. In recent years, our region has developed, grown, and improved.

The most important thing is that our province is changing not every year, but month by month, day by day, hour by hour, and the feelings of pleasure, joy, and pride in my heart have no limits. During the visit, the opinions expressed in the meetings, initiatives for the further development of Jizzakh, the well-being of our people and It is natural to be pleased with the huge plans aimed at increasing the income. Another special aspect of this visit is that it is so blessed was established in months.

#### **References:**

1. [https://www.academia.edu/114424885/JIZZAX\\_SHAHR\\_I\\_YA\\_NGI\\_IQTISODIY\\_INFIRATUZILMALARI\\_VA\\_SHAHR\\_I\\_QTISODI](https://www.academia.edu/114424885/JIZZAX_SHAHR_I_YA_NGI_IQTISODIY_INFIRATUZILMALARI_VA_SHAHR_I_QTISODI)
2. [https://www.academia.edu/31027106/OZBEKISTON\\_MODALIY\\_MADANIYATITARIXI\\_39\\_NASHRI](https://www.academia.edu/31027106/OZBEKISTON_MODALIY_MADANIYATITARIXI_39_NASHRI)



***Hamidjonova Kamolaxon Obid qizi***

26.12.2005-yili Namangan viloyati Uychi tumanida tugʻilgan.  
Namangan Davlat Chet Tillar instituti bakalavriat talabasi.

### **TA'LIMDA YANGI TEXNOLOGIYALAR, MADANIYATLARARO MULOQOT VA CHET TILLARINI RIVOJLANTIRISH: ISTIQBOLLAR VA YANGI YONDASHUVLAR**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tillarini oʻqitishda madaniyatlararo muloqotni takomillashtirish, taʼlimda yangi texnologiyalardan foydalanish istiqbollari va yangi yondashuvlari masalalari yoritilgan. Yangi texnologiyalarni rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot va chet tillarini oʻrganish zamonaviy taʼlimda muhim rol oʻynaydi. Texnologiyalar bilimga kirishni yaxshilashga yordam beradi, madaniyatlararo muloqot va tillarni oʻrgatish esa global fikrlash va madaniy kompetensiyani rivojlantiradi.

**Kalit soʻzlar:** Texnologiya, rivojlantirish, chet tili, onlayn taʼlim, onlayn platforma, interaktiv darsliklar, virtual taʼlim, zamonaviy darsliklar.

Hozirgi kunda taʼlim sifatini oshirish maqsadida qilinayotgan ishlar soni sezilarli darajada ortib bormoqda. Taʼlim sifatini yaxshilash uchun asosiy vositalardan biri bu zamonaviy texnologiyalardir. Taʼlimda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish oʻquvchilarning shaxsiyatini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi va zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini qondiradi. Shu sababdan ham hozirgi taʼlim tizimida yangi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim masalalardan biriga aylangan.

Taʼlim sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalar:

Raqamli texnologiyalar taʼsirida jadal rivojlanayotgan zamonaviy dunyoda taʼlim sohasida ham chuqur oʻzgarishlar roʻy bermoqda. Yangi texnologiyalar biz uchun cheksiz imkoniyatlarni ochib, butunlay boshqacha taʼlim muhitini yaratadi. Elektron darsliklar oʻrganish jarayonini yanada sodda va qulay qilishi, oʻquvchilarga keng imkoniyatlar taklif etishi va ularni oʻzlashtirishga yordam berishi mumkin. Yuqoridagi fikrimizga misol tariqasida hozirda hammaga tanish boʻlishga ulgurgan Booknomy, Tedbook, Smartbook kabi intensiv texnologiyalarini oladigan boʻlsak. Bu darsliklar, anʼanaviyligi va

innovatsiyalarni birlashtirish va o'rganish jarayonini yanada qulayroq qilish maqsadida keng tarqalgan. O'rganuvchilar bu kabi darsliklar orqali tillarni oson va qisqa muddatda o'rganmoqdalar.

Zamonaviy texnologiyalar interfaol ta'lim platformalari, xususiylashtirilgan ta'lim tajribasi va keng ko'lamlı ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish orqali ta'limda inqilob qildi. Ba'zi asosiy texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

1. Onlayn ta'lim platformalari: Khan Academy, MyTeacher, Topskill, Online dars.uz, Coursera va edX kabi platformalar turli fanlar bo'yicha kurslarni taklif qiladi.

2. Gamification: Ta'limni o'yinlarda o'rganish. O'quvchilarni faol ishtirok etishga va o'yin orqali o'rganishga undaydi, interaktiv qiladi.

3. Bulutli hisoblash: Bulutli platformalar o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida hamkorlikni osonlashtiradi va resurslar, topshiriqlar va fikr-mulohazalarni oson almashish imkonini beradi.

Chet tillarini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor va madaniyatlararo muloqotlar:

Zamonaviy ta'limda madaniyatlararo muloqot ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashtirish sharoitida, turli madaniyatlar vakillari o'rtasidagi aloqalar tez-tez bo'lib qolganda, boshqa madaniyatlarni tushunish va hurmat qilish qobiliyati muvaffaqiyatli hayot va ish uchun zarur shartga aylanadi. Chet tillarini bilish boshqa madaniyatlarni chuqurroq o'rganishga, ularning qadriyatları va an'alarini tushunishga imkon beradi, shuningdek, bag'rikenglik va o'zaro tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim tizimida xorijiy tillarni samarali o'rganish uchun sharoit yaratish zarur. Bunga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy etish, o'ziga xos materiallardan foydalanish, xalqaro hamkorlikni tashkil etish va tajriba almashish orqali erishish mumkin. Ta'lim talabalarga bag'rikenglik, tanqidiy fikrlash va dunyoga turli nuqtai nazardan qarash qobiliyatini o'rgatish orqali madaniyatlararo kompetensiyani faol ravishda rivojlantirishi kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, nafaqat oliy ta'limda, shuningdek, maktab va bog'chalarda ham zamonaviy texnologiyalardan va metodlardan foydalangan holda ta'lim berish, talaba va o'quvchi yoshlar bilan ishlaganda kreativ yondashish va yana chet tillarini o'rganish va o'rgatishni rivojlantirish muhim masalalardan biri bo'lib qoldi. Yangi texnologiyalar, madaniyatlararo muloqot va chet tillarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning asosiy omili hisoblanadi. Bu omillar ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo kompetensiya va globallashtirish dunyoda hayotga tayyorgarlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuni yodda tutish kerakki, ta'lim nafaqat bilim olish, balki o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan va tashqi dunyo bilan muvaffaqiyatli munosabatda bo'lishga qodir shaxsni shakllantirishdir.

## *Otaxonova Gulsanam Alisher qizi*

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Tarix va uni o'qitish metodikasi yo'nalishi 2- bosqich talabasi

### **GENDER TENGLIK-YUKSALISH SARI YANA BIR QADAM**

**Annotatsiya:** Maqolada yurtimizda gender tenglik va mamlakatimizda ayollarning jamiyatdagi tutgan o'rni haqida so'z boradi. Bundan tashqari, bugungi kunda xotin qizlarga yaratib berilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlar, ishlab chiqilgan qonun va loyihalar ham asosiy o'ringa qo'yilgan.

**Kalit so'zlar:** gender tenglik, ombudsman, yetakchi ayol, zo'ravonlik, kamsitish, kokus, strategiya, hududning ixtirochi ayoli.

Asrlar davomida sharq ayollarining go'zalligi, iffati, odob-axloqi, ibohayosi butun yer yuzini hayratga solib kelmoqda. Ammo, bugungi kunda ayollar va qizlarga qarshi turli jinoyatlar bo'layotgani sir emas. Befarqligimiz natijasida ulardan juda og'ir holatga kelganlari ham bor. Bugun mana shunday dolzarb zamonda gender tenglik masalasi jamiyatimizdagi eng ustuvor masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi:

Ayollar va erkaklar tengligi, oila va jamiyatdagi o'rni, oila va yurt tinchligi uchun juda muhimdir. Bu haqida davlatimiz qonunchiligida ham belgilab o'tilgan. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 2019-yil 23-avgustdagi qonunning 1-moddasida shunday deyiladi: Ushbu qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat "Darhaqiqat, gender tenglik o'zi nima? va bu tushuncha bizning jamiyatimizga qanday kirib keldi?, bu qonun biz uchun qanchalik kerak? Degan savollarga ham javob topish bugungi kunimizning muhim savollari desak adashmaymiz.

Gender atamasi 1968- yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilk bora ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, „jins“ degan ma'noni anglatadi. Bugungi kundagi xotin-qizlarga berilayotgan shart-sharoitlarni va imkoniyatlarni, shu jumladan, haq-huquqlari oyoqosti qilinayotgan ayollarni va ularning himoyasi uchun bugun gender tenglik degan tushuncha quloqqa bod- bod chalinadigan bo'ldi. Erta turmushga berilayotgan qizlar, oilasida halovat topmagan, ishida o'z o'rniga ega bo'lmagan, qadr qimmatini topmayotgan ayollar uchun gender tenglik

masalasi juda muhimdir. Davlat va jamiyat rivojida ayollar va erkaklar tengligiga juda qadim zamonlardan beri e'tibor berib kelinadi. Misol uchun, Forobiy o'zining Fozil odamlar shahri asarida,, tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat " deb ta'riflaydi. Ammo, gender tenglikka hamma ham birdek to'g'ri qarashga ega emas. Ba'zilar buni g'arb davlatlariga "taqlid" deb hisoblasa, ba'zilar sharqona madaniyatimizga, qadriyatlarimizga zid deya ta'riflaydi. Aslida, qadriyatlar insonlar hayotini go'zallashtirgani, osonlashtirgani uchun jamiyatimizda ajralmas bo'lib kelmoqda-ku. Aslida, ayollarga nisbatan har qanday zo'ravonlik aqlli jamiyat jumladan, Islomda ham qoralanadi. Hadislarda ham qizlarni ilmi qilish va majburiy nikohdan saqlash haqida ko'p ma'lumotlar berilgan. Agar oilaning bir o'g'li ilmi bo'lsa , o'sha oila ziyoli bo'ladi. Agar oilaning bir qizi ilmi bo'lsa, butun millat ma'rifatli bo'ladi. Bugun mana shunday masalalarga qanchalik e'tibor qaratyapmiz?!

O'zbekistonda gender tenglikka erishish strategiyasini amalga oshirish va gender tenglikka erishish bo'yicha loyihalar ham amalga oshirilmoqda. Bu loyihaning maqsadi gender tengligi va xotin-qizlar imkoniyatini yanada kengaytirish sohasidagi tizimli o'zgarishlarni ilgari surish uchun jamiyatda mustahkam o'rin olgan stereotiplar va me'yorlarni o'rganishdan iborat. Loyihaning asosiy hamkori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyalari hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Xotin-qizlar va oila masalalari qo'mitasi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Davlat statistik qo'mitasi, Inson huquqlari bo'yicha Milliy qo'mita, Ombudsman, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

2022- yil 21- iyunda Toshkent shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi O'zbekiston Respublikasi Senati bilan hamkorlikda ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, gender tengligi, ayollarning yetakchilik qobiliyatlarini oshirish, erkaklar va ayollar o'rtasida tenglik masalalari bo'yicha jamoatchilikni xabardor qilish, O'zbekistonda gender tengligi milliy strategiyasi doirasidagi islohotlarni keng jamoatchilik bilan muhokama qilish maqsadida,, O'zbekiston yetakchi ayollar kokusi"ni ishga tushirdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yil 30-apreldagi yangi tahriri 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi",-degan qonunni ham tasdiqladilar.

Natijalar:

• Yangi jamiyatga yana bir ildam qadam tariqasida O'zbekistonda

2021 – yildan 2030-yilgacha mo'ljallangan Gender tenglikka erishish strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani amalga oshirish uchun 8 ta ustuvor yo'nalish tanlab olingan. Bular:

1. Saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash,
2. Davlat xizmatlari sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash,
3. Ta'lim, ilm-fan, sport hamda sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash,
4. Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash,
5. Tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash,
6. Oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash,
7. Gender jihatlarni hisobga olgan holda rejalashtirish va byudjetlashtirish,
8. Gender statistikasi yuritilishini tashkillashtirish.

Ushbu strategiya doirasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Xususan, „gender audit“ni amalga oshiruvchi Qonun loyihasi ishlab chiqildi. Gender tenglik monitoringi va samaradorligini baholash sohasida [www.gender.stat.uz](http://www.gender.stat.uz) rasmiy veb sayti ishga tushirildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining qisqa ishonch telefoni (1146) ham yo'lga qo'yildi. Oilaviy zo'ravonlikka qarshi ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazlari faoliyat yuritmoqda. Jamiyatda xotin-qizlar rolini oshirish maqsadida ko'pgina tanlov loyihalari ham ishlab chiqilgan. Bulardan biri "Hududning 100 ixtirochi ayoli" tanlovidir. Har bitta hududda yashovchi xotin-qizlarimiz bandligini ta'minlash, ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishda bu kabi loyihalarning o'rni beqiyosdir.

Muhokama:

Shunday qilib, respublikada barcha sohalar ayollar va erkaklar tengligiga oid konstitutsiyaviy prinsipni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu prinsipni davlat siyosati darajasiga ko'tarish uchun huquqiy bazalar yaratilmoqda. Jamiyatda ayollarga nisbatan eskicha qarash, turli ziddiyatlarga yo'l qo'ymaslik, shu bilan birga oilada erkakning o'rmini ham yo'qotib qo'ymaslik haqida xato va kamchiliklarni bartaraf etish masalalari muhokama qilinmoqda. Albatta, bu harakatlarda jamiyatda har bir tuzilma, har bir qatlam hamjihatlikka ish ko'rmog'i lozim.

Xulosa:

Har bir kelajagini o'ylagan davlat, albatta, fuqarolar tinchligi, ularning baxtli, farovon yashashlari haqida qayg'uradi. Tenglik, hurfiylik hukm surgan jamiyatda har vaqt rivojlanish va yuksalish

bo'lib kelgan. Eskicha qarashlarga asoslanib ayollar faqat uy yumushlari bilan shug'ullanishi kerak degan g'oya bilan yashasak, farzandlar tarbiyasida bo'shliq, ma'naviy sustlashish bo'lishi mumkin. Chunki, bolani ko'p hollarda ona tarbiyalaydi. Yurtimizda onalar, xususan, barcha xotin-qizlar ta'lim olishlari uchun juda keng imkoniyatlar yaratilgan. Oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan qizlar uchun foizsiz ta'lim kreditlari, magistratura bosqichida ta'lim olayotgan qizlar uchun esa davlat granti ajratilgan. Bunday yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, xotin-qizlar har jabhada o'z bilim va imkoniyatlarini ishga solib, kerak bo'lsa, erkaklar qatorida belni mahkam bog'lab xizmat qilmoqdalar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023- yil 30-apreldagi Yangi tahriri.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Xotin-qizlar va erkaklar teng huquq va imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida“gi qarori. (02.09.2019)
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati qarori 28.05.2021.SQ-297-IVson
4. Abu Nasr Forobiy,, Fozil odamlar shahri ".Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-1993
5. Xotin-qizlar va oila masalalari qo'mitasi rasmiy hisobotlari.
6. Ikramov. R, Bekmirzayev N. (2020) Yurist nutqi madaniyati. Toshkent:Akademnashr
7. Nilufar Jo'rayeva,, O'zbekistonda xotin-qizlarga munosabat". Toshkent-2013.
8. Gender tenglik komissiyasi haqidagi rasmiy sayti.
9. [www.gender.stat.uz](http://www.gender.stat.uz) sayti.

## ***Bo'rixonova Mahfuza Abdiali qizi***

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Tarix va uni o'qitish metodikasi yo'nalishi 2- bosqich talabasi

### **ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning hayoti va ijodi haqida to'liq ma'lumot beriladi. Alloma asarlarida ta'lim-tarbiyaning o'rni haqida kerakli ma'lumotlar berib o'tiladi.

**Kalitso'zlar:** Vatan, jaholat, axloq, tarbiya, odob, maktab, "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim".

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida hunarmand-to'quvchi oilasida dunyoga kelgan. U 7 yoshida O'qchi mahallasidagi boshlang'ich maktabga o'qishga boradi. Abdulla Avloniyda she'r yozishga ishtiyoq 15-16 yoshlarida paydo bo'ladi. Uning ilk she'riy mashqlari 1894-yilda bitilgan.

Abdulla Avloniy ma'rifat yo'lida har qanday mehnat va mashaqqatlarni yengib o'tgan bobolarimizdan biri- Abdulla Avloniy Mirobod mahallasida maktabdorlik bilan shug'ullanadi. Abdulla Avloniy ochgan maktab o'z davrining yangi usuldagi ilg'or maktablaridan biri edi. U 1909-yilda "Jamiyati xayriya" tashkilotini ochdi. U mahalliy xalq bolalarining o'qib bilim olishiga ko'maklashish maqsadida pul yig'ib, maktablarga tarqatadi.

Maktab—bu kichik boshqarma. Unda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'ziga xos talab va majburiyatlari mavjud. Zamonaviy o'qituvchi, eng avvalo, mas'uliyatli va ma'noli muomala qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bola shaxs sifatida voyaga yetishi, eng birinchi, oilaga borib taqaladi. U oila muhitida tarbiyalanib, inson sifatida shaklanadi.

Abdulla Avloniy jamiyat qoshida "Turon" nomli teatrni ham tashkil etadi. O'zining e'tiroficha, o'ntaga yaqin pyesani ozarbayjon tilidan o'zbek tiliga tarjima qildi. 3 ta yangi pyesa yozgan va ularni sahnalashtirgan. Shuning uchun ham un yangi uslub maktabini ochib bu maktabda o'zi bolalarni o'qitadi. Shu maktab uchun "Birinchi muallim" (1909), "Ikkinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Maktab gulistoni" (1916), "Olti qismdan iborat adabiyot yoxud milliy she'rlar" (1909-1916) singari darsliklar, alifbo va o'qish kitoblarini yozdi. Abdulla Avloniy 1934-yil 25-avgustda vafot etdi.



Abdulla Avloniy ijodida Vatan mavzusi ham katta ahamiyatga ega. Vatan har bit kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakatini shu kishining Vatani derlar. Har kim tug‘ilib o‘sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu Vatan his-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Adib jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun tarbiya muhim o‘rin tutishini alohida ta’kidlab, shunday deydi:

”Tarbiya bizlar uchun yo hayot—yo mamot,yo najot—yo halokat,yo saodat—yo falokat masalasidir”.

Shoirning “Ikkinchi muallim”dagi “Maktab” she’rida ham yosh kitobxonlar, maktab o‘quvchilariga murojaati seziladi.

Maktab uyi dorul-omon  
Maktab hayoti javidan  
Maktab safoyi qalbi jon  
G‘ayrat qilib,o‘g‘lon!

She’rda maktab tinchlik, omonlik uyi, hayot manbai, qalblarga yaxshilik, ravshanlik keltiruvchi joy sifatida tasvirlanishi bilan birgalikda u axloq,odob uyi,Allohning ehsoni va bir ajib gulshan sifatida talqin etiladi.

“Chin do‘st” she’riy hikoyasidagi manzaralarining ramziy tushunish ham mumkin. Ikki do‘stning safari umrga, yo‘lda uchragan daryoni hayot sinovlariga,bexosdan kelgan to‘lqinlarni kutilmagan baxtsizliklarga o‘xshatish mumkin.Mana shu sinovlar paytida kim o‘zini qanday tutadi-hammasi shunda.

Qiyinchiliklarni birgalikda yengish,og‘ir damlarda yordamini taklif qilish o‘rniga faqat o‘zini o‘ylab yashaydigan odamlarni Abdulla bobomiz bir so‘z bilan nomard deb ataydiki, bunga qo‘shilmaslikning iloji yo‘q.

Abdulla Avloniy bolalarga samimiy fikrlarini o‘ynoqi satrlarda tasvirlash bilan birga Vatan va uning qismati bilan bog‘liq jiddiy mulohazalarni bayon etadi.”Vatan “ nomli she’rida Ona yurtning noz-ne‘matlari,boylklari ta’rif-tavsif etiladi. Chunki bola tarbiyasida vatanparvarlik g‘oyalari muhim o‘rin tutadi.Ijodkor Vatanni Onaga qiyoslaydi.O‘z onasini ardoqlagan, uni himoya qila olgan bolagina Vatanini ham yovuz kuchlardan himoya qila oladi,degan fikrni ilgari suradi.

Abdulla Avloniy axloqiy-ta’limiy asarlari bilan o‘zidan keyingi avlodni ezgulik, yuksak axloqiylik, ziyolilik ruhida tarbiyalashga hamon xizmat qilmoqda. Ma’rifatparvar adib tarbiya masalasini hayotga birinchi o‘ringa qo‘yadi. Barcha ishlarning muvaffaqiyatini tarbiyalanganlikdan ko‘radi. Vatan Onadek muqaddas ekanligini, uni qadrlash, e‘zozlash, shodlik va quvonchiga sherik bo‘lish, g‘am-hasratini baham ko‘rish farzandning burchi ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Bobomizning yana bir hikoyati Xo‘roz bilan Bo‘ri haqida. Ushbu hikoyati orqali har kimni

sinamasdan aslini bilmasdan olib o'ylash, unga ishonish aqldan emasligini yorqin ifoda etib tasvirlab bergan. Hushyorlik, ogohlik hech qachon odamga ziyon keltirmasligi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, har bir inson tug'ilib o'sgan Vatani e'zozlashi, ardoqlashi, uning qadriga yetishi kerak. Zero biz Vatanni Onaga qiyoslaymiz. O'z onamizga qanday mehribonlik qilsak, hurmat qilsak, vatanimizga ham shunday munosabatda bo'lishimiz kerak. Ayrim shaxslar borki, Vatanning qadriga yetmaydi. Vatanning qadriga yetmagan inson, boshqa joyga yoki musofir yurtlarga borsa, u yerdagi qiyinchiliklarni ko'rsagina, keyin Vatan nima ekanligini, uni e'zozlashi, qadriga yetishini tushunadi. Bu to'g'risida Abdulla Avloniy bobomiz ham asarlarida bosh mavzu qilib tanlagan. Hozirgi kunda yoshlarimiz bobomizning asarlarini o'qib, o'rganib, yaxshi tarbiya, bilim, salohiyat egasi bo'lib kelmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.Avloniy. Tanlangan asarlar. 2. T; "Ma'naviyat -2019".
2. Barakayeva R."A.Avloniy va bolalar adabiyoti". T: Fan, 2004.
3. "Bolalar adabiyoti va zamonjildlikaviylik". T:Fan, 1981.

## *Jo‘rabayeva Fotima Zafarjon qizi*

Andijon davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti Gid hamrohligi yo‘nalishi talabasi.

### **MARKAZIY OSIYODA ARXELOGIK TADQIQOTLAR**

**Annotatsiya:** Hayotimizda uchraydigan ba‘zi udumlar qadimgi davrlardagi udumlarga borib taqaladi. Bu maqolada Markaziy Osiyo muqaddas kitob sanalgan Avestoda keltirilgan olov va bug‘doylar bilan bog‘liq ma‘lumotlar yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Avesto, olov, bug‘doy, Farg‘ona, hudud

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz hududida qadimgi davrlardan boshlab rivojlangan qishloqlar, shaharlar va sivilizatsiya markazlarining boy o‘tmishini arxeologik jihatdan tadqiq etish va tarixiy jarayonlarni tiklash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston hududi tosh davridan boshlab o‘zlashtirilganligi, mamlakatimiz jahondagi ilk shaharsozlik va davlatchilik shakllangan markazlardan biri bo‘lganligi, tariximiz va madaniyatimiz chuqur ildizlarga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Avesto o‘zbek, umuman O‘rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma‘naviy madaniyatlarini o‘rganishda muhim va yagona manba. „Bu nodir kitob bundan 300 yil muqaddam ikki daryo oralig‘ida, mana shu zaminda umrgo‘zaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma‘naviy, tarixiy merosidir“ (I. A. Karimov, „Adolatli jamiyatsari“. T., 1998, 39—40-betlar). O‘zbekiston hukumatining tashabbusi bilan YUNESKO Bosh konferensiyasi 30-sessiyasi „Avesto“ yaratilganining 2700-yilligini dunyo miqyosida nishonlash haqida qaror qabul qildi (1999-yil noyabr). „Avesto“ning jahon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o‘rmini hisobga olgan holda hamda yuqoridagi qarordan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror e‘lon qilib (2000-yil 29-mart), „Avesto“ning 2700-yilligini nishonlash tadbirlarini belgiladi. Unga ko‘ra 2001-yilning oktabr oyida O‘zbekistonda xalqaro ilmiy konferensiya va tantanali bayram tadbirlari o‘tkaziladi.

Avestoda 4 unsur: suv, havo, yer va olov muqaddas sanalgan.

Xorazm birinchi bo‘lib Zardushtiylik muqaddas olovi „Atar — xurra“ yoqilgan va Axuramazda Zardusht bilan bog‘langan joy hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi hisoblangan Avestoda: "birinchi bor muqaddas olov „Atarxurra“ „Eran-vej“ (ba‘zi manbalarda „Ayrian vedja“)da yoqildi" deyiladi. Avestodagi olov bilan bog‘liq unsurlar

Markaziy Osiyo, ya'ni O'zbekistonning barcha hududlarida saqlanib qolgan. Ulardan biri Farg'ona viloyati.

Farg'ona vodiysi hududi ko'p ming yillar davomida o'zining rang-barang landshaftiga ega bo'lganligi bilan O'rta Osiyoning turli mintaqalarida, paleolit davridan to neolitgacha va undan keyingi davrlarda yashagan xalqlar uchun jonli sivilizatsiya chorrahasi bo'lib kelgan. Shu boisdanboshqa joylardan ham turli udumlar, marosimlarning kirib kelishiga sabab bo'lgan. Olov atrofida kelin-kuyovning aylanishi, isiriqni yoqib tutatish orqali ins-jinslarni quvish, turli xil ofatlardan va ko'z tegishlardan asrash, tumov tekkanda yoki bosh og'rig'idan qutilish uchun foydalanilgan. Demak, bunda ham olovdan foydalaniladi. Bozorlarda ham savdo yaxshi bo'lishi uchun isiriq tutatib yuruvchilar ham bor. Bunday irim-sirimlar boshqa viloyatlarda ham kuzatiladi.

Surxandaryo viloyatida to'y marosimida ham olov yoqiladi. To'y bo'layotgan uy hovlisiga olov yoqiladi va olov yonidan kelin-kuyov o'tib sahnaga o'tishadi.

"Avesto"da yozilishicha, "kimda-kim bug'doy eksa, u Ashaxni (Haqiqat) ekadi. U Mazda dinini yana va yana ko'kartiradi. U Mazda dinini yuzlab hamd-u sano, nazr-u niyoz va o'n minglab qurbonliklar quvvatlantirgandek qudratli qiladi. Qachonki egatlarda urug' yetilsa, devlar o'rinlaridan ko'chadilar. Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatlardan titray boshlaydilar. Qachonki bug'doy un bo'lsa, devlar nola chekadilar. Qachonki bug'doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo'ladilar. Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa u xonadonga devlar yaqinlasha olmaydilar. Qay bir xonadonda bug'doy ombori bo'lsa, go'yo qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi"<sup>9</sup>. Ko'rinadiki, "Avesto" paydo bo'lgan davrda g'alla ekish, don etishtirish, umuman, dehqonchilik madaniyati yetarli darajada rivojlangan ekan.

Biz o'zbek xalqining an'anaviy turmush tarzi bilan bog'liq qarashlar va marosimlarni kuzatar ekanmiz, yer, don va nonga bo'lgan o'ziga xos hurmat-ehtiromni turli-tuman udumlar va marosimlarda hozirgacha saqlanib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasidagi xalqona qarashga ko'ra bug'doy, olma, qovun, anjir va rayhon dastlab jannatda o'sgan. Shu bois ushbu o'simliklar va mevalar doimo e'zozlangan. Ayniqsa xalq orasida yerga bug'doy sepish eng xayrli amallardan biri sanalgan va bug'doy ekilgan maydonlarni oyoq osti qilish gunoh hisoblangan. Qolaversa bug'doydan tayyorlanadigan taomlar ham alohida qadrlangan. Jumladan, bahorda ilikuzildi paytida ayollar tomonidan namlangan bug'doyni ko'klatib, sumalak tayyorlash va qolaversa bir marta sumalak tayyorlangan uyda etti yil mobaynida har yili bir marta sumalak pishirish udumlari hozirgacha davom etib kelmoqda.

Shu o'rinda halqimizning nonga bo'lgan xurmat e'tiborini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Asosiy xo'jalik mashg'ulotlaridan biri

dehqonchilik bo'lgan o'zbek xalqida non azaldan asosiy va tansiq iste'mol mahsulotlaridan bo'lishi bilan birga, non bilan bog'liq qator marosimlar va urf-odatlar shakllangan. Jumladan, non hech qachon oyoq ostiga tashlanmagan. Nonni bosish og'ir gunoh hisoblangan. Bundan tashqari kelinni kuyovnikiga kuzatishda boshiga non qo'yish odati bo'lgan. Farg'ona vodiysi o'zbeklari qadimiy odatga ko'ra g'alla somonini hech qachon o'choq va tandirga yoqishmagan. Chunki donni-nonni yoqish og'ir gunoh deyiladi. Izlanuvchilarning ta'kidlashlaricha, non bor joyga turli ins-jinslar va yovuz kuchlar yaqinlashmas ekan. Shu bois yomon ko'zdan, yovuz kuchlardan asrovchi vosita sifatida, yangi tug'ilgan chaqaloqning yoki xatna qilingan bolaning yostig'i ostiga boshqa qator ramz xususiyatga ega buyumlar bilan birga non qo'yilgan. Xorazmda non bo'laklarini tumor kilib taqilgan va non uchun hamir tayyorlab qo'yilgan yerga (masalan, tandir oldiga) jin, parilar yaqinlashmaydi deyiladi.

Xulosa qilib aytganda, bizdagi ko'p udumlar, irim-sirimlar Avestoda keldirilgan marosimlar ildiziga borib taqaladi. Olov va bug'doy misolida bularni ko'rib chiqildi. Arxeologik ishlar olib borish yangi kashfiyotlarga olib keladi. Avesto muqaddas kitobni o'qisak, ko'p udumlar, ma'lumotlar, bu kitob yozilishidan avval xalq orasida paydo bo'lganliginin degan to'xtamga kelamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.09.2019 yildagi 792-son. <https://lex.uz/uz/docs/-4524476>.
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Avesto>
3. <http://www.academy.uz/uz/page/word/markaziy-fargona-chollarida-arxeologik-tadqiqotlar-olib-borilmoqda>
4. Kadirov M., Otrivki iz Avesti (perevod), Materiali po istorii obshestvenno-filosofskoy misli v O'zbekistane, T., 1976.
5. Makovelskiy A. O., Avesta, Baku, 1960.
6. Sagdullayev A. S., Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda, T., 1997. Muhammadjon Hodirov.[1]
7. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/288>

## *Alimbaeva Guljamal Sadaddinovna*

1999-yil Nukus shahrida tavallud topgan. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi.

### **ONA TILI DARSLARIDA NUTQ O'STIRISHDA MUNOZARALI MAVZULAR BO'YICHA SUHBAT UYUSHTIRISH**

Ona tilida o'z fikrini mutlaqo mustaqil va ravon bayon qila oladigan yoshlarni tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Shundan kelib chiqib ona tili darslarida og'zaki nutqning har ikkala shakli dialog va monolog uchun kerakli malakalarni shakllantirish mashqlaridan unumli foydalanish lozim. Bunday mashqni tashkil etishda yuzaga keladigan eng asosiy vazifalardan biri o'quvchilarni o'zaro munozara qilishga undaydigan mavzuni tanlab olish va uni bolalarga yetkazish bilan bog'liqdir. Ana shu vazifani yetarli darajada hal qilish uchun mashq oldidan o'quvchilarga suhbat mavzusini aytish bilan bir qatorda ularga shu mavzu qanday munozaralarga sabab bo'lishini ham eslatib o'tish foydadan xoli bo'lmaydi. Masalan, o'quvchilar bilan kiyinish madaniyati haqida suhbat o'tkazish oldidan ularga shu mavzu bo'yicha ikki xil nuqtayi nazar mavjudligini ko'rsatib o'tish mumkin. Buning uchun o'qituvchi bolalarga quyidagi kirish so'zi bilan murojaat qilishi mumkin: "Bolalar, har bir inson o'zining qilayotgan ishlari, o'y fikrlari, yashayotgan sharoiti, tashqi ko'rinishining zamonga mos bo'lishini xohlaydi. Ana shu ehtiyoj odamni doimo yangilik sari intilishga undaydi. Bizning hayotimizda, ayniqsa, keyingi yillarda bunday yangiliklarning salmog'i ko'paydi. Bir so'z bilan aytganda, hayotimizning barcha sohalarida yangilanish davri boshlandi. Bunday yangiliklar kiyinish madaniyatida ham o'z aksini topmoqda. Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, kiyinish haqida ikki xil fikr bildirilmoqda. Ko'pchilik yoshlar yevropacha liboslarni kiyishni xohlaydilar. Ammo keyingi vaqtlarda milliy liboslarni afzal ko'radigan yigit-qizlarning soni ortib bormoqda. Bu haqda siz qanday fikrdasiz? Sinfdozlaringizga o'z mulohazalaringizni aytib, nima uchun shunday qarorga kelganingizni tushuntirib berishga harakat qiling". Bundan tashqari, "Salomlashish odobi", "Telefon orqali suhbatlashish madaniyati" kabi mavzularda ham o'quvchilar nutqidagi g'alizliklarni hayotiy misollar orqali bartaraf qilish mashqlarini o'tkazish sezilarli samara beradi.

Ona tili darslarida muloqot usulida amalga oshiriladigan dialogik nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar haqidagi fikrlarni yakunlashdan oldin barcha nutq mashqlariga taalluqli bir fikrni bayon

qilish zarurati tug'iladi. Gap shundaki, dars jarayonida bajariladigan har qanday ishni, shu jumladan, har qanday mashqni ham o'quvchi ta'limiy maqsadga qaratilgan, ko'p jihatdan sun'iy topshiriq sifatida qabul qiladi. Shu boisdan u har qanday topshiriqni ma'lum darajada yuzaki bajarish bilan cheklanib qoladi. Demak, darslarda ko'zda tutiladigan mashqlardan bevosita hayotiy muloqotga o'tishni ta'minlash zarurati tug'iladi. Ma'lumki, bunday muloqot aksariyat hollarda darsdan tashqari vaziyatlarda amalga oshiriladi. Bizningcha, ona tili darslarida ana shunday muloqotni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday muloqotni amalga oshirish uchun o'quvchilar bilan birgalikda maktabdagi ta'lim-tarbiyaviy ishlarni, ommaviy tadbirlarni rejalashtirish yoki bo'lib o'tgan tadbirlarni muhokama qilish mumkin. Albatta, bunday muloqotni o'tkazish uchun dars hisobidan vaqt ajratishga to'g'ri keladi. Bunday imkoniyat har doim ham bo'lmaydi. Ammo o'qituvchi darslarni to'g'ri rejalashtirib, ana shunday ish uchun vaqt ajrata olsa, nutq malakalarini shakllantirish bilan bog'liq ishlari izchil va to'liq bo'lishi uchun sharoit yaratiladi. Zero, bunday muloqot paytida o'qituvchi, birinchidan, darslarda egallangan nutqiy ko'nikma va malakalarini muayyan amaliy faoliyatni yo'lga qo'yish uchun qo'llanishga erishgan bo'ladi, ikkinchidan, u o'quvchilarning nutqini kuzatish va kerakli xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Og'zaki nutq faoliyatining yana bir shakli monologik nutq malakalarini shakllantirishda ham bir qator o'ziga xos muammolarni hal qilishga to'g'ri keladi. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish lozimki, tabiiy muloqot sharoitida, aksariyat hollarda dialog hamda monolog bir-biriga chambarchas bog'langan bo'ladi. Binobarin, nutqning bu ikki shakli ko'p umumiy ko'nikma va malakalar yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, og'zaki nutqning har bir shakli o'ziga xos malakalarga ega. Xususan, monolog shaklidagi nutqni tuzishda quyidagi malakalar yuzaga chiqishi kerak.

1. Nutq jarayonida ifoda qilinayotgan hamma fikrlarni suhbat mavzusiga mos keltirish.
2. Barcha fikrlarni aynan shu vaziyatda ko'zda tutilgan muloqot maqsadini amalga oshirishga qarata olish.
3. Nutqning yo'nalishini to'g'ri belgilay olish.
4. Nutq jarayonida yuzaga kelayotgan fikrlarning o'zaro bog'lanishin ta'minlay olish.
5. Nutqning mazmunini muloqot vaziyatiga qarab o'zgartira olish.

Ushbu malakalarni yetarli darajada shakllantirish uchun darslarda qo'llanadigan ijodiy xarakterdagi an'anaviy mashqlar bilan bir qatorda maxsus mashqlarni ham o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday mashqlar monologik nutqqa xos bo'lgan malakani alohida

shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, bogʻlanishli nutqning ogʻzaki va yozma shakllari deyarli bir xil malakalar asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham, oʻquvchilarning monologik nutqini va yozma nutqini shakllantirishda bir-biriga oʻxshash mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq (ogʻzaki yoki yozma bayonning rejasini tuzish, reja asosida tuzilgan hikoyaning mazmunini gapirib berish yoki yozish, boshlanishi yoki oxiri berilgan hikoyani tugallash va boshqa). Bir xil mazmunga ega boʻlgan matnning ham ogʻzaki, ham yozma ravishda berilishi nutq oʻstirishning samaradorligini oshirishga xizmat qilishi tajribada kuzatilgan jarayon.

Demak, ona tili darslari oldidagi dolzarb masalalardan biri boʻlgan nutq oʻstirish mashqlari yoshlarda mantiqiy fikrlash, hozirjavoblik, tilga eʼtiborli boʻlish va nutq madaniyatini takomillashtirish koʻnikmalarini shakllantirishda muhim vosita boʻlib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. T.Yoʻldosheva. Oʻquvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirish. Til va adabiyot taʼlimi. -Toshkent, 2006. № 3.
2. R.Tolipova. Ona tili taʼlimi muammolari xususida. Til va adabiyot taʼlimi. Toshkent, 2006. № 3.
3. O.Doʻstmurodova. Ona tili taʼlimining yangi texnologiyasida taʼlim maqsadi. Til va adabiyot taʼlimi, Toshkent, 2011.



## MUNDARIJA:

1. **Maxmudjonov Ibroximjon Ismoiljon o'g'li..... 5**
2. **Buvim menga aytgan AFSONA VA RIVOYATLAR. Mamadaliyeva Nargizabonu Umurzaqaliyevna.... 6**
3. **O'RMONDA ADASHIB QOLGAN QIZ. Hasanova Muslimabonu Xurshid qizi..... 12**
4. **QOR OSTIDA. ENDI QAYTIB TUG'ILMAYDI SENDAY ONA. Abdumannonova Gullola Alimardon qizi..... 13**
5. **SO'NGGI SO'Z (Muhammad Yusufga). Xidirboyev Odilbek Alisherovich..... 14**
6. **SHE'RLARIM YONIMDA BO'LSA BO'LGANI. Uchlik. Aminboyeva Munisa Ravshanovna..... 18**
7. **O'N OLTI BAHORI KUL BO'LGAN ERKAM. OTA-ONAMGA. Tirkasheva Sevinch..... 20**
8. **VATAN TUYG'USI. G'afforov Behruz Rashid o'g'li...22**
9. **AMIR TEMURNING DUNYO SAHNIDA TUTGAN O'RNI. Urinova Feruza Fozilovna.....23**
10. **SUV RESURISLARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI. O'ralova Gulida Ergash qizi..... 27**
11. **DUNYOVIY MUAMMOLARNI YECHISHDA TABIIY GEOGRAFIYANING O'RNI. Qurbonova Charos Toshmurod qizi..... 31**
12. **O'ZBEKISTONDA VA CHET ELDA OILA PEDAGOGIKASI RIVOJLANISH TARIXI. Pirnazarova Asal..... 34**
13. **CHEKSIZ KOINOT. Ziyakulova Marifat Maxammadovna.. 40**
14. **SHAROF RASHIDOVNING "QUDRATLI TO'LQIN" ROMANI LINGVOPOETIKASI. G'ayratova Gulzoda San'at qizi... 42**
15. **Kamolova Sarvinoz O'rol qizi..... 46**
16. **TA'LIMDA YANGI TEXNOLOGIYALAR, MADANIYATLARARO MULOQOT VA CHET TILLARINI RIVOJLANTIRISH: ISTIQBOLLAR VA YANGI YONDASHUVLAR. Hamidjonova Kamolaxon Obid qizi..... 50**
17. **GENDER TENGLIK-YUKSALISH SARI YANA BIR QADAM. Otaxonova Gulsanam Alisher qizi..... 52**
18. **ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI. Bo'rixonova Mahfuza Abdiali qizi..... 56**
19. **MARKAZIY OSIYODA ARXELOGIK TADQIQOTLAR. Jo'rabayeva Fotima Zafarjon qizi.. ..... 59**
20. **ONA TILI DARSLARIDA NUTQ O'STIRISHDA MUNOZARALI MAVZULAR BO'YICHA SUHBAT UYUSHTIRISH. Alimbaeva Guljamal Sadaddinovna...62**

# INTELLEKTUAL YOSHLAR

## Antologiya

**Loyiha asoschilari:** Nargizabonu **Mamadaliyeva**  
Ibroximjon **Maxmudjonov**

**Muharrir:** Sevarabonu **Yunusaliyeva**

**Dizaynerchilar:** Mirakbarjon **Hasanov**,

Muslimabonu **Hasanova**

**Sahifalovchilar:** Fotimabonu **Xasanboyeva**,

Xusanboy **Xasanboyev**

2024

## 904.0 INTELLEKTUAL YOSHLAR

"Yuksalish sari — barcha uchun" va "Intellectual yoshlar" loyihalari asoschilari hamkorlikda ushbu antologiyani tashkillashtirishdi. Bu to'plamiga intellektual salohiyatli, iste'dodli, iqtidorli ijodkorlarning she'r, hikoya va maqolalari kiritildi. Bu antologiya ishtirokchilarning ijodiga omad tilaymiz! Bu to'plam barchaga manzur bo'ladi degan umiddamiz!



**Mamadaliyeva Nargizabonu** 1987-yil 12-dekabr kuni Farg'ona viloyati Uchko'prik tumanida tug'ilgan. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi.

**Maxmudjonov Ibroximjon** 2001-yil 7-iyunda Andijon viloyati Oltinko'l tumanida tug'ilgan. Andijon davlat universiteti ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti talabasi.

